

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DABLAT UNIVERSITETI
TARIX VA IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI**

**TARIX TA'LIMI YO`NALISHI 4-KURS TALABASI
MADRAHIMOV AZIZBEK**

**MAVZU: TURKISTONNI CHOR ROSSIIYASI MUSTAMLAKCHILIGI
DAVRI TARIXINI MANBALARDA AKS ETIRILISHI.**

**BITIRUV MALAKAVIIY
ISHI**

Ilmiy rahbar: dots. S.A.Xoshimov

ANDIJON - 2015

Mundarija

Kirish.

I.BOB. Turkistonning Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri tarixining tarixiy-ilmiiy adabiyotlarda yoritilishi.

1.1. Mustamlakachilik davri tarixining Sovet davri adabiyorlarida aks etirilishi

1.2. Mustaqillik davrida Chor Rossiyasi mustamlakachilik davri tarixining o`rganilishi

II Bob. Mustamlakachilik davri tarixiga oid mavjud o`sha davrning tarixiy hujjatlari muhim manbalar sifatida

2.1. Qonun chiqarish aktlari, ish yuritish xujjatlari, siyosiy partiyalar va tashkilotlar xujjatlari.

2.2. Statistik manbalar va davriy matbuot materiallari, esdaliklar va boshqa memuar manbalar.

Xulosa .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ilovalar

KIRISH.

Mavzuning dolzarbliqi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixining qator dolzarb masalalarini o‘rganishda aniq va haqqoniy tarixiy yondashuv masalasi muxim o‘ringa ko‘tarildi. Zero, yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini, o‘z maqsad muammolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma’naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi”.¹ Ayniqsa, o‘zbek davlatchiligi, uning mustamlaka davrida kechgan tarixini viloyatlar misolida chuqur o‘rganish va taxlil qilish, tarixiy manbalardagi ma’lumotlarni ilmiy muomilaga kiritish maqsadida tadqiqotlar olib borish shu kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Shunday dolzarb masalalardan biri chor mustamlakachilik davridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, tarixiy-madaniy hayotini birlamchi manbalar asosida qiyosiy taxlil qilish va xolisona o‘rganishdir.

Ta’kidlash joizki, Turkistoning mustamlakachilik yillaridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotini tadqiq etishda birlamchi manbalarning o‘rni beqiyosdir. Shuningdek, mustamlakachilik davrida Turkistonning ijtimoiy iqtisodiy axvoli, xalqning turmushida kechgan o‘zgarishlar, mustamlakachi ma’murlarning o‘lka xalqlariga o‘tkazgan zulmlari, zulmlarga qarshi xalqning erk va ozodlik uchun kurashlari, uezd xalqining mustamlakachi boshqaruv davridagi turmush tarzi o‘sha davr birlamchi manbalari asosida ochib shu kunning dolzarb mavzulari sirasiga kiradi.

Bu borada shuni ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, O‘zbekistonning yangi tarixini yozish konsepsiyasi xaligacha o‘rganilmagan manbalar turkumini faollik bilan izlab topish va ilmiy muomalaga kiritish, ularni chuqur o‘rganish, ilmiy ahamiyat va ma’lumotlarning ishonchli ekanligini aniqlash zarurligini taqazo qiladi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 27 iyulda qabul qilgan “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti

¹ Каримов И.А. Юсак маънавият-енгилмас куч. –Тошкент, Маънавият, 2008.-Б.97.

faoliyatini takomillashtirish to'g'risi"daqi qarorini eslash o'rinlidir. Mazkur qarorda barcha arxeologik va yozma manbalarni to'plash hamda ularni ilmiy-qiyosiy tarzda tahlil etish va bir tizimga solish zarurligi qayd etilgan.²

Shu bois ham chor Rossiya mustamlakachiligi davri tarixiga oid mavjud manbalarni to'plash va ularni o'quvchilarga yetkazish birlamchi vazifalar sirasiga kiradi. Chunki, ushbu manbalarda Rossiya bosqini arafasida va mustamlaka yillarida O'rta Osiyo xalqlari hayotining barcha qirralari imkon darajasida qamrab olingan.

Mustamlakachilik davriga tarixiga oid manbalar birinchi navbatda birlamchi manbalar o'sha davrga oid qonunchiqarish hujjatlari, statistik ma'lumotlar, esdalik va xotiranomalar, arxiv hujjatlari, davriy matbuot nashrlari, o'sha davr va keyingi davr muarrixlari asarlarida hamda turli xildagi "Sbornik" larda O'rta Osiyoning tarixi, iqtisodi, etnografiyasi, tabiiy iqlim sharoiti, qazilma boyliklari haqida juda ham boy ma'lumotlar keltirilgan. SHuningdek, ushbu manbalarda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini, siyosiy va madaniy hayotini aks ettiruvchi ko'plab ma'lumotlar ham keng o'rin olgan. Mustamlakachilik davri tarixiga oid arxiv hujjatlari va boshqa manbalar materiallarning qimmatlari shundaki, ulardagi keltirilgan ma'lumotlar birlamchi manba ekanligi bilan ham qadrlidir. Shuningdek, o'sha davr mualliflari yozgan asar va esdaliklar ham mualliflarning voqealarni bevosita guvohlari yoki ishtirokchilari sifatida yozgani bilan ham ishonarlidir. Shuning uchun ham ko'plab tadqiqotchilar Turkiston o'lkasining mustamlaka yillari tarixining u yoki bu qirralarini o'rganishda o'sha davrga oid mnabalardagi ma'lumotlariga murojaat qilganlar. Biroq, ushbu davrga oid manbalarning ko'pi to'liq ravishda xaligacha o'rganilmagan va ilmiy muomalaga kiritilmagan. Ularni mustaqilligimiz g'oyasi talablari asosida bir tizimga solish, boshqa manbalar bilan taqqoslagan holda tanqidiy mushohada qilish nafaqat Turkistonning mustamlakchilik davri tarixini chuqurroq o'rganishga, shu bilan birga haqqaniy tariximizni tiklashda,

² Каранг. Халқ сўзи. 1998. 28 июль.

vatanimizning mustamlaka o‘tmishi haqidagi bilimlarimizni yanada boyishiga yordam beradi.

I.BOB. Turkistonning Chor Rossiyasi mustamlakchiligi davri tarixining tarixiy-ilmiy adabiyotlarda yoritilishi.

1.1. Mustamlakachilik davri tarixining Sovet davri adabiyotlarida aks etirilishi

Turkiston o'lkasining rus mustamlakachiligi va sho'ro hukmronligi davrida kechgan mazlumona hayoti tarixiy-ilmiy adabiyotlarda, qay nuqtai nazardan bo'lmasin, har holda, nisbatan to'laroq ifoda etilgan, deyish mumkin. Bu adabiyotlarni mazmun va mohiyat e'tibori bilan to'rt davrga ajratish to'g'ri bo'ladi. Birinchi davri asosan 1917-yilgacha yozilgan tadqiqotlarni, ikkinchi davri 20-50-yillarda, uchinchi davr esa 50-yildan to 80-yillar birinchi yarmiga qadar yaratilgan asarlarni qamrab oladi. To'rtinchi davrga oid adabiyotlar tarixsunoslikda "qayta qurish" deb nom olgan 80-yillarning ikkinchi yarmidan to O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganiga qadar va mustaqillik yillarida vujudga kelgan asarlar majmuidan iboratdir.

Birinchi davrga mansub tarixiy-ilmiy kitoblarda rus mustamlakachilik siyosatiga doir tanqidiy fikr-mulohazalar deyarli uchramaydi. Chunki ularning mualliflari asosan boshqa xalqlarni tanishdan, ezishdan manfaatdor bo'lgan dvoryan-pomeshchiklar, zobitlar, savdo-sanoat korchalonlari, nufuzli amaldorlar bo'lishgan. Bu xil manbalarda ko'proq Rossiyaning Turkistonda qo'llay boshlagan iqtisodiy-siyosiy zug'umlarini oqlash saltanat hukmron doiralarining manfaati nuqtai nazaridan o'lkani o'zlashtirish bo'yicha yana qanday tadbirlar ko'rish zaruriyati bahs etiladi. Bu asarlardagi bosh g'oya, yetakchi yo'nalish, qanday bo'lmasin, saltanatning Turkistondagi tajovuzi va mustabid tizimini g'oyaviy asoslashga, yangi "ikkinchi rus Turkistoni" ni barpo etish uchun zarur yo'nalishlarni belgilashga qaratilishi bilan bog'liq edi. bu jihatdan general-leytenant M.A.Terent'evning "O'rta Osiyoning bosib olinishi tarixi" (1906) asarini qayd etish mumkin.

Kitobda O'rta osiyoning mustamlakaga aylantirilishi ahamiyati ko'rsatilib, birinchi fotih K.P. fon Kaufmannning "o'lkani o'zlashtiruvchilik" faoliyatiga

tahsinlar o`qiladi. Muallif rus dvoryanlari va kapitalistlarining manfaatlari himoyachisi sifatida qalam tebratadi.

Sankt-Petenburg zodagonlari vakili, o`lkashunos olim knyaz V.I.Masal`skiy³ esa diqqatini Turkistondagi yer-suv masalalariga qaratib, arzon xom ashyosiga erishish uchun o`lkada paxta yakkahokimligini o`rnatish, ruslarni ko`paytirish choralarni ko`rish lozimligini uqtiradi. Podsho vaziri A.V.Krivoshein⁴ ham asarlarida xuddi shu haqda fikr yuritadi.

O`lka iqtisodiyotida oid asarlarda asosan hukmron davlat – Rossiya manfaatlari nuqtai nazaridan masalaga yondoshiladi, mustamlaka siyosatini mustahkamlash, shu orqali imkon qadar o`lka qonini zulukdek so`rish chora va usulari bahs etiladi. Taasufki, ularda Rossiya istibdodi, milliy xo`rlash siyosatiga oid jiddiy tanqidiy fikr-mulohazalar o`z ifodasini topmagan.

Lekin, garchand axborot tarzida bo`lsa-da, bu adabiyotlarning qimmati shundaki, mualliflar hech bir istihola qilmay, o`zlari tarafdor bo`lgan mustamlakachilikning haqiqiy basharasini, oshkor va pinhon niyatlarini takabburlik ila namoyish etadilar. Bu esa, rus mustamlakachiligining qabohati ingliz, ispan, fransuz va nemis mustamlakachiligiga qiyos etilganda, ulardan necha bor tahlikali tusda amalga oshiriganligidan dalolat beradi.

Birgina ruslarning temir yo`l, sanoat va harbiy sohadagi barcha malakali ishchilarni o`z tasarufiga olish mohiyatiga e`tabor beraylik. Bundan ko`zlangan pinhona va razilona maqsad Turkiston tub aholisining taraqqiyotiga g`ov qo`yish, ko`zga ko`rinmas to`rlar bilan uning oyoq-qo`lini chirmab tashlash, oxir-oqibatda, o`lkani Rossiyasiz mustaqil kun ko`rishdan mahrum etish edi. bu maqsad yo`lida ular o`z madaniyatini, tili va adabiyotini, musiqa va hatto, me`morchiligini Turkiston aholisi didiga yaqinlashtirishga, shu orqali, ularning ich-ichiga kirib borishga intiladi. Tub joy kishilari bilan o`zlarini teng qilib ko`rsatish, shu taxlit ular hurmatini qozonish, birga o`tirib-turish, qon-qarindosh bo`lib ketganligini

³ Ўзбекистонинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакчиги даврида. Т., Шарқ, 2000. Б.9

⁴ Ўша жойда Б.10.

pesh etish odatdagi holga aylanadi. Rus mustamlakachiligining bu xildagi qabih va ayyorona dasturi fikr yuritilayotgan birinchi davr adabiyotida yaqqol gavdalanadi, deyish mumkin. Mustamlakachilar bor kuch-g`ayratlarini Turkistonning o`tmishini kamsitishga, bizni asl tarixizdan judo qilishga sarflaganlari bu davr adabiyotiga xosdir.

Ikkinchi davrga taalluqli adabiyotda Turkiston o`lkasidagi mustamlakachilik siyosati va uning asosiy yo`nalishlari, shuningdek, istoqlol uchun olib borilgan kurashlat qamrab olinadi. Tabiiyki, bu mavzular shu davr adabiyotida, ayniqsa, 20-yillar tarixshunosligida bir qator mualliflarning asarlarida turli darajada, turlicha saviyada o`z aksini topdi. Muhimi shundaki, 20-yillarda qalam tebratgan mualliflar o`zlari tavsir etgan, fikr yuritgan ijtimoiy-siyosiy voqea hodisalarning bevosita ishtirokchilari bo`lishgan. Shu boisdan bu asarlarda davrning murakkab, ziddiyatli, mahzun ruhi ufrib turadi. Chunonchi, mustamlakachilik siyosatining tub mohiyati G.I.Safarov, P.G.Galuzo va A.Z.Validiy To`g`on tadqiqotlarida ilk daf`a to`laroq aks etdi.

Insof bilan aytganda, G.I.Safarov⁵ keng qamrovli daliliy misollar asosida Turkistonda bor qudrati bilan ishga tushirilgan mustamlaka idorasi mashinasi kirdikorini va podsho amaldorlarining o`lka boyliklarini ayovsiz talaganligini, xalqni asoratga solganligini dalil ko`rsatib bera olgan. Uning shahodat etishicha, rus sarmoyasining o`lkaga kirib kelishi, ya`ni Rossiya imperiyasining ramzi bo`lgan ikki boshli burgutning chovuti Turkiston xalqi turmushini ostin-ustun qilib yuborgan.

G.I.Safarovning xulosalari uning halol tadqiqotchilardan ekanligini ko`rsatadi. U, jumladan, Turkistonda o`troqlashgan Yevropa aholisining barcha qatlamlarini umumiy andoza bilan mustamlakachilar deb ataydi. Uning mustamlaka sharoitida avj olib borayotgan sinfiy va milliy tengsizlik haqidagi, avvalo rus ishchilariga berilgan imtiyozlar, ularning mahalliy ishchilarga nisbatan hukmron mavqei haqidagi mushohadalarini ham adolatdan deb qarash o`rinlidir.

⁵ Сафаров Г. И. Колониальная реиолуция (опыт Туркестана). М. 1921.

Chor Rossiyasining milliy o'lkada olib borayotgan ruslashtirish siyosati, ko'chirib keltirilayotgan rus kelgindilariga yerli aholining eng unumdor, sara yerlarini olib berishi Turkistonda norozilik va milliy-ozodlik harakatlarini yuzaga keltirgan asosiy omillar bo'lganligini ko'rsatganda muallif haq edi. "Barcha ruslar, - deb yozgan edi u, - Turkistonning tub aholisini odam emas, balki urish, talash, zo'rlash mumkin bo'lgan ish hayvonlari degan aqida bilan yashagan va tarbiyalangan".

Shu kabi holislik va ziddiyatli qarashlar P.G.Galuzo tadqiqotlariga⁶ ham xosdir. U dadillik bilan Rossiyaning mustamlakachilik tizimi va, umuman, istibdod siyosatining barcha salbiy oqibatlarini keng dalillangan misollar asosida fosh etadi.

O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishining salbiy oqibatlarini atroflicha yoritgan P.G.Galuzo o'lkadagi milliy-ozodlik harakatlari omillari haqida ham so'z yuritadi. U Rossiyaning Turkistondagi qattol mustamlak siyosati tufayli xalq harakatlari kelib chiqqanligini ko'plab ishonchli dalillar asosida gavdalantiradi.

Umuman olganda, bu ikki tadqiqotchi o'z asarlarida Rossiya mustamlakachilik siyosatining barcha qirralarini chuqur yoritgani holda, Turkistondagi istiqlool kurashi xususida sinfiy yondashuvda turushganini alohida ta'kidlab o'tamiz. Chunki ular Sho'ro hokimiyatini mafkurasi nuqtai nazaridan fikr yuritib, sinfiylik mafkurasi doirasidan chetga chiqisha olmagan. Bu jihatdan Ahmad Zakiy Validiy To'g'on asarlari ularda keskin farq qiladi. U 1929-yili Germaniyada yozgan "Turkiston masalasi" asarida chor Rossiyasi yuritib kelgan mustamlakachilik siyosatini fosh etibgina qolmay, sho'ro Rossiyasining xuddi shu siyosatini o'zgacha niqobda davom ettirayotganini ham isbotlab bergan. "Turkiston uchun istiqlool barcha ishlarning boshidir, - deb yozadi Validiy, - istiqlool bo'lmasa, Turkistonga faqat chetdangina olib kelish mumkin bo'lgan zamonaviy texnika asboblari yo'l yo'q. Chunki ruslar Turkistonga keltirilishini hohlamagan narsalarning ulardan bekitiqcha, uning ustiga bu o'lkaning taraqqiyotiga sabab

⁶ Ўзбекистонинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакчилиги даврида. Т., Шарқ, 2000. Б.11.

boʻladigan vositalarning kirib kelishiga albatta qarshilik koʻrsatadilar. Shuning uchun Turkiston Rossiyaning qaysi idora usulida yashamasin, yurtni oʻzi istagandek idora eta olmaydi”.

Validiy 1924-yildayoq 1991-yili boʻladigan voqealarni tadqiqotchiga xos aniq bashorat qilgani diqqatga loyiqdir: “Turkiston masalasida bolsheviklarning va boshqa ruslarning roli masalasiga kelganda, biz uchun rus tuzumining hammasi birdir. Bunga Janubiy Turkmanistonning 50-60 va Shimoliy Turkmanistonning 200 yillik tarixi guvoh. Turkiston chor hukumatiga qarshi qanday isyon qilgan boʻlsa, bolʻsheviklarga qarshi ham xuddi shunday isyon etgandir. Demak, Turkiston uchun turkistonliklarga muvofiq keladigan hech bir us hukumati boʻlmagan. Har ikkisida ham sharoit birdir. Bas, shunday ekan, har bir harakatimizda qoʻllarimizni bogʻlagan, taraqqiyot va inkishof yoʻliga toʻsiq boʻlib kelgan bu gʻovni ortiq kutmay oradan koʻtarmoq lozim. Bizning butun umidimiz kelajakda ham qoʻshni boʻlajak Rossiyada Turkistonning mustaqillikka erishishiga imkon beradigan va u mustaqil boʻlgandan soʻng ruslarning taaddi va tajovuzlarini moneʻ boʻla oladigan bir vaziyatning vujudga kelishidir. Orssiyada qanday idora usuli boʻlishidan qaʼtiy nazar, mustaqilligimizni haqiqatda ham tanigan ruslarga qarshi bir yomon fikrimiz boʻlmasligi tabiiydir. Bizning bugungi tavajjuhimiz, avallo, oʻzimizga, soʻng boshqa gʻayri rus millatining buy oʻlda sobit va quvvatli boʻlmoqlariga qaratilgandir. Biz ular bilan birgamiz va mushtarak gʻoyamizning amalga oshishida hamkorlarimiz bialn birgalikda kurashamiz”⁷.

Xorijga ketishga majbur boʻlgan A.Z.Validiy Rossiya siyosatini roʻy-rost va atroflicha tadqiq etadi: “Rusiya Osiyoda gʻoyat uzoqni koʻzlovchi siyosat ketidan quvuvchi va bu keng qamrovli harakatlari hech qanday chek-chegara boʻlmagan, hirs va ishtahasi esa kun sayin oshib boruvchi imperialistic davlatdir... Rus istilolari, yangi-yangi oʻlkalarni zabt etmoq va u yerlardagi qavmlarni madaniy-

⁷ Ўзбекистонинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакчиги даврида. Т., Шарқ, 2000. Б.12

iqtisodiy sharoitlar vositasida assimiyatsiya qilib, ular hisobiga kengayib, ko`payib, kuchayib bormoq g`oyasini ko`zda tutadi”⁸.

A.Z.Validiy To`g`on rus podsholigi siyosatini mohiyat e`tibori bilan yanada yuqori pog`onaga ko`tarib davom ettirayotgan sho`ro Rossiya mustamlakachiligining asosiy yo`nalishlarini shunday belgilaydilar:

1. Rus imperializmi bilan bialn kommunizm biri ikkinchisining davomi bo`lib, ularni ikki asos – tamoyil sifatida birlashtirgan Rusiyaga tobe millatlarga va dunyoga ikki yuzlama siyosat yuritmoq.

2. Rus millatining jahonga hokim bo`lish g`oyasini “muqaddas ideal” darajasiga ko`tarmoq va jangovor millat tayyorlamoq.

3. Har qanday vositalar bilan bo`lsa-da, rus nufusini oshirmoq.

4. Ruslarni Osiyoning yangidan ishg`ol qilinajak yerlariga o`sha lahzadayoq jo`nab keta oladigan darajada harakatchan, ayni paytda, qo`nimsiz bo`lini tamin etmoq.

5. Istilo qa`tiyatni ta`min etmoq uchun boshqaruvdagi oliy markaz va diktatorlik siyosatini mukammallashtirmoq.

Ahmad Zakiy Validiy fikrlari shu tariqa 20-yillar tarixshunosligidagi tadqiqotchilik saviyasi bo`yicha erishilgan to`laqonli ilmiy xulosa bo`ldi.

Taniqli olim, ma`rifatparvar va jamoat arboblardan Mahmudxo`ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho`lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov kabi o`zbek xalqining millatparvar fidokorlarining 20-yillaardagi matbuotda yoritilgan katts-kichik maqolalarida Turkistondagi eski va yangimustamlakachilik hamda istiqlol kurashi tarixi yoritilgan va ular ham Turkiston tarixshunosligida o`z o`rnini topishga loyiqdir.

Munavvar qori Abdurashidxonovning 1927-yil O`zbekiston madaniyatchilar qurultoyida qilgan ma`ruzasi Turkistonda chorizm siyosatiga qarshi, istiqlol uchun olib borilgan kurash sahifalarini oydinlashtiruvchi nodir manbadir. Uning siyosiy

⁸ Закий Ахмад Закий. Туркистон масаласи. Берлин, 1924; Рус мустамлака сиёсатининг моҳияти ва мақсади. Вена, 1929. Бугунги турк эли ва Туркистон Янги тарихи. Истанбул, 1981, 2-нашр, профессор Б. Қосимов таржима қилинган.

idora talabi bilan yozilgan jadidchilik harakati tarixiga bag'ishlangan uch qismdan iborat xotiralari ham ana shunday qimmatli adabiyotlar sirasiga kiradi.

Chorizmning mustamlaka istibdodi va unga qarshi ko'tarilgan milliy-ozodlik harakatlari jadidchi Fozilbek Otabek o'g'lining "Dukchi Eshon voqeasi" (1927) kitobida dalillar asosida o'zining yorqin ifodasini topdi. Bu asarda rus mustabidlarining ko'chruchilik siyosati va istibdod zulmi boy dalillar asosida yoritilgani e'tiborga loyiqdir. Fozilbek Otabek o'g'li XIX asr oxirlarida Turkistondagi vaziyatni o'sha davr shohidi sifatida ishonarli tasvirlagan.⁹ Fozilbek Otabek o'g'li 20-yillar tarixshunosligida birinchi bo'lib, 1898-yilgi Andijon qo'zg'aloni rahbari Muhammadali eshon shaxsi va uning faoliyatini bevosita o'sha voqealar guvohi sifatida xolis baholab, o'z fikrlarini zamondoshlar guvohliklari asosida ishonarli tarzda isbotlab bergan.¹⁰

20-yillarda shu tariqa rus zulmiga qarshi qaratilgan inqilobiy va milliy-ozodlik harakatlari xususida turli qarashlar, bir-biriga zid g'oyalar o'rta tashlandiki, bu holat tarixiy tafakkurning rivojlanishi hamda tadqiqotchilik saviyasining ko'tarilishiga qulay zamin yaratdi. Bu davrda ham to'g'ri va xolis fikrlar bor edi. Bu o'rinda sho'ro tarixshunosligining otasi hisoblangan M.N.Pokrovskiy xizmatini alohida qayt etish kerak. U podshohlik Rossiyasining istilochilik qabohatini bir qadar halol va haqqoniy baholagan edi. Pokrovskiyning fikricha: "Moskva imperializmi" XVI asrdan e'tiboran hukm surib keladi. Bu davrda Yevropadan Osiyogacha bo'lgan buyuk suv yo'lining Qozondan Ashtarxonga qadar bo'lgan janubiy intihosi zabt etilib, Boltiq dengiziga chiqqiz uchun uning shimoliy nihoyasiga ko'z tikish boshlangan edi.

Pokrovskiy rus imperializmining Kavkaz va O'rta Osiyoda amalga oshirgan tajovuzini "Jinoyatkorona mustamlakachilik urushlari", deb ataganda juda haq edi. Darvoqe, uning fikricha, "osiyoliklarning rus nomini eshitganda qaltirashga

⁹ Фозилбек Отабек ўғли. Дукчи Эшон воқеаси. Самарқанд Тошкент, 1927.

¹⁰ Бу мавзуга оид дастлабки қўлёзма асарлар XX аср бошларидаёқ юзага келган эди. Бу ўринда Қўкон шахриси қозиси Муҳаммад Юсуф ибн Муҳаммад Амин Тоибнинг "Тухфаи Тоиб" (1905), Марғилон ҳокими девони қотиби Муҳаммад Азиз ибн Муҳаммад Ризо Марғилонийнинг "Тарихи Азизий" (1910) асарларини кўрсатиш мумкин. Маскур асарларда 1898 йилги Андижон қўзғалони ва унинг раҳбари Дукчи Эшон ҳақида маълумотлар келтирилган эди.

tushishi osonlikcha bo'lmagan va arzonga tushmagan... Btun-butun qishloqlar unga yaqin bir joydan topilgan rusning murdasi uchun tag-tugi bilan yondirib yuborillardi".¹¹

30-yillarda tarix fanida sotsializm qurish bilan bog'liq masalalar yuzasidan boshlangan munozaralarda xolislikdan sinfiylik mezoniga yondashuvga o'tish kayfiyati kuchaydi. Turkistondagi sotsialistik inqilobning qonuniy jarayon ekanligini asoslashga urinishdek soxta jazava avj oldi. Tarixan ilmiy halollik o'rnini mavjud hukmron mafkuraga xizmat qilish istagi egalladi. Tadqiqotchilik mohiyatini Turkistondagi iqtisodiy-ijtimoiy voqelikni sho'ro mafkurasi nuqtai nazaridan baholash ishg'ol etdi. 1917-yilgi "Oktabr inqilobi" ning tarixan muqarrar jarayon ekanligini isbotlash asosiy ilmiy mezon hisoblandi. Tarixiy kechmish shu nuqtai nazardan tahlil qilindi. 20-yillar tarixshunosligida jiddiy asarlari bilan tanilgan V.Lavrent'ev Turkiston iqtisodiyotida mavjud kapitalistik munosabatlarga shu nuqtai nazardan kelib chiqib havoyi baho berdi. U xatto o'rtahol dehqonlar xo'jaligida ham "kapitalistik korxonalarni" ko'rdi. Lavrente'v fikricha, O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi mutlaq ijobiy voqea bo'lib, u Turkiston o'lkasida tubdan o'zgarish yasagan va u "Oktabr inqilobi" uchun yetarli iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy zamin yaratgan. V.Lavrente'v¹² g'oyasini L.Rezstov¹³, F.Karpich¹⁴ va boshqalar ham tasdiqlab, chorizm mustamlakachilik siyosatini xaspo'shlab o'tishdi. Shu tariqa 30-yillardagi tarixiy adabiyotda bir toifa tadqiqotchilar "Oktabr inqilobi" ning bosh sababchisi chorizmning milliy zulmi, mustamlaka istibdodi deb hisobladilar. Ikkinchi toifadagi tarixchilar esa buni inkor etib, ijtimoiy zulmni birinchi o'ringa chiqardilar. Yana bir guruh tadqiqotchilar esa inilob uchun Turkistonda yetarli sharoit bo'lmagan deb uqtirishdi.

¹¹ Ўзбекистонинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустанлакчиги даврида. Т., Шарқ, 2000. Б.14.

¹² Ўша жойда Б.15.

¹³ Ўша жойда.Б.15.

¹⁴ Ўша жойда. Б.16.

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi Sobiq Sovet Ittifoqidagi milliy respublikalarda “vatanparvarlik” toʻlqinini yuzaga chiqardi. Urushdan keying dastlabki yillarda qardoshlik, jipslik tuygʻusi im-fanda, shu jumladan, tarixga doir asarlarda ham aks eta boshladi. Yagona vatan tushunchasidan kelib chiqilgan holda, nisbatan xolis tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu yillarda chorizm mustamlakachilik zulmini ochib tashlash va milliy-ozodlik harakatlarini roʻy-rost yoritish imkoniyati tugʻildi. Natijada bir qator jiddiy tadqiqotlar yuzaga keldi.

Shu tariqa ikkinchi davr adabiyotida chorizm mustamlak siyosati va istiqlol uchun kurash mavzusi maʼlum darajada oʻz aksini topdi. Ammo 50-yillarda qayta boshlangan siyosiy qatagʻon bunday ijobiy jarayonni boʻgʻib tashladi.

Koʻzda tutilayotgan uchinchi davr (50-yillardan 80-yilla birinchi yarmiga qadar) adabiyotida tarixni soxta;ashtirish va buzib talqin etish sohasida oʻziga xos poyga avj oldi. Binobarin, Turkiston oʻlkasida boʻlib oʻtgan barcha milliy-ozodlik harakatlari haqida ijodiy fikr bildirish u yoqda tursin, bor haqiqatni yozish goʻyo rus xalqiga qaratilgan millatchilik harakati sifatida baholanar edi. bu shu darajaga borib yetdiki, XIX asr ikkinchi yarmidagi milliy-ozodlik kurashlariga munosabat bildirish “ulugʻ rus xalqi bilan boʻlgan doʻstlikka rahna solish” sifatida siyosiy xatoga yoʻyildi. Masalaning bu tarzda gazaklashishi “ulugʻ ogʻa” vakillarining ayrim vijdonli, halol olimlarida hijolat tuygʻusini uygʻotmay qolmadi. 1954-yilda Oʻrta Osiyo va Qozogʻiston tarixiga bagʻishlangan ilmiy sessiyada A.I.Sidorov aytgan quyidagi gaplat diqqatga loyiqdir: “Oʻrta Osiyoning oʻzbek, qozoq, qirgʻiz, turkman, tojik va boshqa xalqlarning turli shakldagi gʻalayonlari, bu xalqlarning mustamlaka istibdodiga qarshi kurashi ilgʻor harakat deb baholanmasligi – bu, demak, xalq ommasining tarixiy voqelikdagi ijobiy xizmatini inkor qilinishidir. Unda tarixda nima ijobiy holat hisoblanadi? Millionlab xalq ommasini qonga botirgan podshohlikning mustamlaka idorasimi? Yoxud bu istibdodga qarshi kurashmi?”¹⁵

¹⁵ Материалы научной сессии посвященной истории Средней Азии и Казахстана в дооктябрьский. Ташкент. 1955. 576- бет.

Biroq, adolat nuqtai nazardan, tarixiy vaziyat va kommunistik mafkura tazyiqini hisobga olgan holda aytiladigan bo'lsa, fikr yuritilayotgan davrning 70-80 yillari boshlarida bir qancha ilmiy-tarixiy asarlar yaratildiki, ularning ilmiy ahamiyatini pasaytirish nojoizdir. Turgan gapki, bu xildagi tadqiqotlarda tarixga xolisona yondashish bobida, birinchi galda, rus saltanatining O'rta Osiyodagi mustamlakachilik siyosatiga ilmiy baho berishdagi cheklanish o'sha davr ruhi bilan izohlanadigan asosiy qusurlar hisoblanadi.

Sho'ro davlati o'zini nechog'lik qudratli hisoblanmasin, u ichdan chiqib tugayotgan edi. Ayniqsa, 80-yillar ikkinchi yarmlari jahon afkor ommasi oldida qizil saltanatning qadam-baqadam fosh bo'lish yillari sifatida tarixga kirdi. "Qayta qurish" siyosati tizgini tobora qo'ldan chiqib borayotgan saltanat otini qamchilashga behuda so'nggi urinish edi. 1985-yildan so'ng matbuotda, ilm-fanda oshkoralik to'liqlini vujudga kelib, tarixshunoslikda erkin fikrlash, xolis ilmiy xulosalarni o'rtaga tashlash imkoniyati tug'ildi.

Mavzu tarixshunosligining to'rtinchi davri 80-yillar ikkinchi yarimlaridan to hozirgi kunlarga qadar bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi. Garchand bu davr tarixan juda qisqa – o'n-o'n besh yilni qamrasa-da, vujudga kelgan adabiyotlar mohiyat va mundarija e'tibori bilan g'oyat salmoqli ekanliginita'kidlashga to'g'ri keladi.¹⁶

Mustaqillik, shubhasiz, olamshumul tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy voqea bo'ldi. Ko'pgina qalam ahli, muarrixlar, olimlar sodir bo'lgan voqea ahamiyatini teran anglab yetganlari holda, bu buyuk o'zgarish ohiyatini daf'atan ilg'ab ololmagan tarixnavislar ham bo'ldi. Qolaversa, o'tmishni qo'msash vasvasasi ham bu yillarda yozilgan ayrim asarlar sahifalarida aks etmay qolmadi. Shu tariqa, tarixshunoslikka doir asarlarning to'rtinchi davrlariga oid bu bosqichida uch holat, uch xil jarayon va qarashlar mavjudligi ko'zga tashlanadi.

Birinchi, sho'rolar Ittifoqi parchalanishidan, uning o'rnini yosh, mustaqil O'zbekiston kabi davlatlarning maydonga kelishidan norozi bo'lib, o'tmishni

¹⁶ Зияев Хамид. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Т.: "Шарқ", 1998. Алимова Д.А.

qo`msab, tarixiy jarayonlarga eskicha “ulug` rus” millatchiligi, buyuk shovunistik siyosat va g`oyalar nuqtai nazaridan yondashib ish ko`ruvchi (V.Pikul, A.Soljentsin, V.Jirinovskiy, M.Popov, B.Kostin, V.Duboviskiy va boshqalar) siyosatdonlar, adiblar, tarixchi va jurnalistlar podshohlik Rossiyasi bosib olgan hududlar “Rossiya yerlaridir, bu yerlar buyuk Rossiyaning kichik bir uyezdi” yoki “guberniyasi” bo`lishi kerak, deb ayuhannos solishda davom etmoqda. Ular rus qo`shinlari tomonidan O`rta Osiyoning harbiy yo`l bilan istilo qilinganligini har jihatdan oqlab, bu mudhish ishni amalga oshirganlarni milliy qahramonlar darajasiga ko`tarmoqdalar.

Ikkinchidan, o`zimizdan chiqqan milliy tarixchilarimizning ayrim vakillari tomonidan hamon o`sha qizil saltanat davrida shakllangan mezon, konsepsiya asosida ish ko`rib, “O`rta Osiyoning Rossiyaga qo`shib olinganini”, “O`rta Osiyoning Rossiyaga qo`shilishining xalqaro ahamiyatini” asoslashga urinib, sobiq mustamlakachilar olib borgan siyosatni soxtalashtirmoqdalar.

Uchinchidan, qayta qurish va mustaqillik yillarida o`tmish tariximizga yangicha yondashib, undagi “oq” va “qora” dog`larni bartaraf qilish niyati bilan, tarixni qanday bo`lsa, shundayligicha, xolisona, bo`yoq va andoshalarsiz yoritishga harakat qilayotgan olim va adiblarimiz ma`lum darajada ijobiy ishlar qilayotganliklarini ta`kidlash mumkin.

“O`zbek olimlarining kuch-g`ayratlari bilan, - deb yozgan edi I.A.Karimov, - tariximizning ko`pdan-ko`p g`oyat muhim sahifalari, eng avvalo, temuriylar davri, XIX asr oxiri – XX asr boshlari tarixi yangidan kashf etildi. shuni esda tutish muhimki, o`tmishimizni “oqlash” vazifalari umuman olganda bajarib bo`lindi; hozir esa asosiy vazifa tarixiy tahlilni ilmiy jihatdan xolisona va halol amalga oshirishdan iboratdir”.¹⁷

O`zbekiston 1991-yil 31-avgustda istiqloлга erishgach, tarixshunoslik fanida yangi sahifa ochildi. Ayniqsa, bu borada Prezident Islom Karimovning 1996-yil 18-sentabrdagi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat

¹⁷ Каримов.И.А. Ўзбекистон XXI бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон, 1997, 141-бет.

qurilishi akademiyasi qoshidagi “O‘zbekistonning yangi tarixi markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi tarixiy Farmoyishi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 16-dekabrdagi qarori goyat katta dasturulamal ahamiyatga ega bo‘ldi.¹⁸

Mazkur tarixiy hujjatlarda “O‘zbekistonning yangi tarixi” ni tayyorlashdek goyat ulkan vazifa qo‘yildi. Buni amalga oshirishda XIX asrning o‘rtalaridan hozirgi kungacha xalqimiz hayotida sodir bo‘lgan tarixiy bosqichlarni va o‘zgarishlarni to‘la qamrab olishga e‘tibor berilishi alohida ta‘kidlandi.

Shu o‘rinda Prezident I.A.Karimovning tariximizni buyuk davlatchilik shovunizmi va agressiv millatchilik ruhida, xususan, Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoda yuritgan siyosatini talqin etuvchi mualliflarni ikki toifaga bo‘lib, ularga bergan ta‘rifini keltirish lozim. Birinchi toifa mualliflari Rossiya imperiyasi Turkistonda mahalliy an‘analari va asoslarni yo‘q qilmagan va buzmagani holda o‘lkaning burjuacha tadrijiy rivojini rag‘batlantirgan edi, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, sho‘ro Rossiyasi, bol‘sheviklar aksincha ish tutgan, shuning uchun O‘rta Osiyo mintaqasida ziddiyatlar kelib chiqqan. Endilikda esa Rossiya Federatsiyasi mintaqada barqarorlashtiruvchi rolni o‘ynashi mumkin emish. Ikkinchi toifa mualliflari fikricha esa, mustamlakachilik musulmon aholining ruhiyatiga mutlaqo yot unsurlarni olib kirgan. Shuning uchun vujudga kelgan ahvoldan qutilish yo‘li sifatida o‘lkaning o‘z tarixiy va milliy negizlariga qaytish taklif qilinadi. Bunga esa mintaqadagi davlatlar faqat qo‘shni musulmon mamlakatlariga ergashgan, kelajakda ular bilan yanada yaqinroq integratsiyaga kirishgan taqdirdagina erishish mumkin emish.¹⁹ Bu ikki toifa qarashlaridan ko‘zlangan asosiy maqsad nimaligini Prezident I.A.Karimov ravshan ifodalab bergan. Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosatini yoritish borasida mualliflar ana shunday qarashlarga raddiya beruvchi o‘z fikrlarini tarixiy dalillar bilan asoslanganlar.

¹⁸ “Халқ сўзи”, 1996-йил 19-сентябр, 1996-йил 17-декабр.

¹⁹ Каримов.И.А. Ўзбекистон XXI бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. 54-55-бетлар.

Respublika Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” gi qarori ham o‘zbek tarixshunosligining bundan buyonga yo‘nalishini belgilab olishda, o‘zbek milliy davlatchiligi tarixini tadqiq etishda, umuman tariximizning konsepsiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston yangi tarixining maskur birinchi jildini tayyorlashda yuqorida zikr etilgan davlat hujjatlari bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlari, nutq va maqolalarida ilgari surilgan g‘oya va fikrlar metodologik asos bo‘lib xizmat qilganini alohida qayd etmoq zarur.

Islom Karimovning 1998-yil 26-iyunda bir guruh tarixchi olimlar, jurnalistlar, ijodiy soha xodimlari bilan bo‘lgan uchrashuvda bildirilgan fikr-g‘oyalari, 1999-yil 2-fevralda “Turkiston” gazetasi muhbirining savollariga bergan javoblari, 16-fevralda Toshkentda ro‘y bergan favqulotda mudhish xodisa munosabati bilan so‘zlagan benihoya ta‘sirchan nutqida ijtimoiy jarayonlarimizning dolzarb masalalari qatori tariximiz haqida ham ko‘pdan-ko‘p dasturulamal, konseptual, yangicha talqinlar ilgari surildiki, ular o‘zbek tarixchunosligining hozirgi taraqqiyot bosqichini, eski holatdan yangi holatga o‘tishi va bundan keying ustuvor yo‘nalishlarni belgilab bermoqda.

Mualliflar ana shu musraqillik ruhi bilan sug‘orilgan ustuvor uslubiy va ilmiy-nazariy yo‘l-yo‘riqlardan, metodologik asoslardan kelib chiqqan holda maskur birinchi kitobni imkon darajasida mukammalroq yaratishga harakat qildilar. Tadqiqot, shu tariqa, Chor Rossiyasining O‘rta Osiyoni bosib olishi va uning bu o‘lkada o‘rnatgan mustamlakachilik siyosati oqibatlarini xolisona yoritish bo‘yicha dastlabki qadamlardan biri bo‘lib, undan kuzatiladigan asosiy maqsad Rossiya va sobiq Sho‘ro davlatining Turkiston o‘lkasida 130 yil davomida olib borgan mustabidlik siyosati tub mohiyati va yurtni majruh etgan asorati sabablarini ochib berish hamda Turkiston istiqloli uchun muttasil davom etgan ozodlik kurashining xususiyatlari va qutlug‘ intihosini yoritishdan iborat.

Maskur bitiruv malakaviy ishining tadqiqot doirasi quyidagi masalalarni o‘z ichiga oladi.

- bosqin arafasida o`zbek xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat;
- Rossiya imperiyasining o`zbek xonliklarini harbiy kuch vositasida istilo qilishi hamda Turkiston o`lkasini mustamlakga aylantirish borasidagi siyosati;
- podsholik Rossiyasining o`lka xalqlarini boshqarish sohasida shafqatsizlikka asoslangan nayranglari; -mustamlaka ma`muriyatining o`lkada ruslashtirish siyosatini amalga oshirilishi va Turkistonda rus nufusini ko`paytirishga intilishi;
- Rossiyaning Turkiston o`lkasini xom ashyo manbaiga va rus sanoatinig o`tmas matohlari pullanadigan tobe bozorga aylantirishi, ya`ni muttasil talonchiligi;
- xalq maorifida ruslarning istilochilik manfaatlariga xizmat qiladigan manqurtlik va jaholatni ko`zda tutadigan islohotlari, ularning asl mohiyatini;
- o`zbek xurfikrliligi va matbuotini rivojlanritishda jadidlarning tarixiy xizmati va bosqinchilar hokimiyatining ularga qarshi olib borgan kurashi;
- fan va madaniyat, ma`naviyat, din va e`tiqod sohasida rus podsholigi tutgan yo`l va uning salbiy oqibatlari;
- Turkiston xalqlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va fuqaroviy huquqlarining hukmron davlat tomonidan pomyol etilishi;
- Rossiya saltanatining Turkitonga joriy etgan soliq siyosatining ezish va talashga asoslanganligi;
- o`lkadagi ozodlik harakatlari va ular haqidagi tarixiy haqiqatni tiklash.

Ayinqsa, Turkistonda XIX asr ikkinchi yarimlarida faoliyat ko`rsatgan matbuot nashrlari, vatanparvar ziyolilar, muarrixlar, olimlar, shoirlarning yurt taqdiri haqida katta qalb bilan qayg`urib yozgan maqolalari, asarlari rus mustamlakachiligining abih mohiyatini, istiqlol uchun olib borilgan tinimsiz kurashlatning qanchalik o`gir kechganligini bugungi avlod teran anglab yetishida bebaho manbalar bo`lib qolaveradi.

1.2. Mustaqillik davrida Chor Rossiyasi mustamlakachilik davri tarixining o`rganilishi

“O`zbek olimlarining kuch-g`ayratlari bilan, - deb yozgan edi I.A.Karimov, - tariximizning ko`pdan-ko`p g`oyat muhim sahifalari, eng avvalo, temuriylar davri, XIX asr oxiri – XX asr boshlari tarixi yangidan kashf etildi. shuni esda tutish muhimki, o`tmishimizni “oqlash” vazifalari umuman olganda bajarib bo`lindi; hozir esa asosiy vazifa tarixiy tahlilni ilmiy jihatdan xolisona va halol amalga oshirishdan iboratdir”.²⁰

O`zbekiston 1991-yil 31-avgustda istiqloлга erishgach, tarixshunoslik fanida yangi sahifa ochildi. Ayniqsa, bu borada Prezident Islom Karimovning 1996-yil 18-sentabrdagi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshidagi “O`zbekistonning yangi tarixi markazini tashkil etish to`g`risida”gi tarixiy Farmoyishi va O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 16-dekabrdagi qarori goyat katta dasturulamal ahamiyatga ega bo`ldi.²¹

Mazkur tarixiy hujjatlarda “O`zbekistonning yangi tarixi” ni tayyorlashdek goyat ulkan vazifa qo`yildi. Buni amalga oshirishda XIX asrning o`rtalaridan hozirgi kungacha xalqimiz hayotida sodir bo`lgan tarixiy bosqichlarni va o`zgarishlarni to`la qamrab olishga e`tibor berilishi alohida ta`kidlandi.

Shu o`rinda Prezident I.A.Karimovning tariximizni buyuk davlatchilik shovunizmi va agressiv millatchilik ruhida, xususan, Rossiya imperiyasining O`rta Osiyoda yuritgan siyosatini talqin etuvchi mualliflarni ikki toifaga bo`lib, ularga bergan ta`rifini keltirish lozim. Birinchi toifa mualliflari Rossiya imperiyasi Turkistonda mahalliy an`analar va asoslarni yo`q qilmagan va buzmagani holda o`lkaning burjuacha tadrijiy rivojini rag`batlantirgan edi, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, sho`ro Rossiyasi, bol`sheviklar aksincha ish tutgan, shuning uchun O`rta Osiyo mintaqasida ziddiyatlar kelib chiqqan. Endilikda esa Rossiya

²⁰ Каримов.И.А. Ўзбекистон XXI бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. 141-бетлар.

²¹ “Халқ сўзи”, 1996-йил 19-сентябр, 1996-йил 17-декабр.

Federatsiyasi mintaqada barqarorlashtiruvchi rolni o`ynashi mumkin emish. Ikkinchi toifa mualliflari fikricha esa, mustamlakachilik musulmon aholining ruhiyatiga mutlaqo yot unsurlarni olib kirgan. Shuning uchun vujudga kelgan ahvoldan qutilish yo`li sifatida o`lkaning o`z tarixiy va milliy negizlariga qaytish taklif qilinadi. Bunga esa mintaqadagi davlatlar faqat qo`shni musulmon mamlakatlariga ergashgan, kelajakda ular bilan yanada yaqinroq integratsiyaga kirishgan taqdirdagina erishish mumkin emish.<sup>22</sup> Bu ikki toifa qarashlaridan ko`zlangan asosiy maqsad nimaligini Prezident I.A.Karimov ravshan ifodalab bergan. Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosatini yoritish borasida mualliflar ana shunday qarashlarga raddiya beruvchi o`z fikrlarini tarixiy dalillar bilan asoslanganlar.

Respublika Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-iyuldagi “O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to`g`risida” gi qarori ham o`zbek tarixshunosligining bundan buyonga yo`nalishini belgilab olishda, o`zbek milliy davlatchiligi tarixini tadqiq etishda, umuman tariximizning konsepsiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O`zbekiston yangi tarixining maskur birinchi jildini tayyorlashda yuqorida zikr etilgan davlat hujjatlari bilan bir qatorda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlari, nutq va maqolalarida ilgari surilgan g`oya va fikrlar metodologik asos bo`lib xizmat qilganini alohida qayd etmoq zarur.

Islom Karimovning 1998-yil 26-iyunda bir guruh tarixchi olimlar, jurnalistlar, ijodiy soha xodimlari bilan bo`lgan uchrashuvda bildirilgan fikr-g`oyalari, 1999-yil 2-fevralda “Turkiston” gazetasi muhbirining savollariga bergan javoblari, 16-fevralda Toshkentda ro`y bergan favqulotda mudhish xodisa munosabati bilan so`zlagan benihoya ta`sirchan nutqida ijtimoiy jarayonlarimizning dolzarb masalalari qatori tariximiz haqida ham ko`pdan-ko`p dasturulamalar, konseptual, yangicha talqinlar ilgari surildiki, ular o`zbek tarixchunosligining hozirgi

²² Каримов.И.А. Ўзбекистон XXI бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. 55-бетлар.

taraqqiyot bosqichini, eski holatdan yangi holatga o'tishi va bundan keying ustuvor yo'nalishlarni belgilab bermoqda.

Ushbu davrda mualliflar ana shu mustaqillik ruhi bilan sug'orilgan ustuvor uslubiy va ilmiy-nazariy yo'l-yo'riqlardan, metodologik asoslardan kelib chiqqan holda maskur mavzuni imkon darajasida mukammalroq yaratishga harakat qildilar. Tadqiqot, shu tariqa, Chor Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olishi va uning bu o'lkada o'rnatgan mustamlakachilik siyosati oqibatlarini xolisona yoritish bo'yicha dastlabki qadamlardan biri bo'lib, undan kuzatiladigan asosiy maqsad Rossiya va sobiq Sho'ro davlatining Turkiston o'lkasida 130 yil davomida olib borgan mustabidlik siyosati tub mohiyati va yurtni majruh etgan asorati sabablarini ochib berish hamda Turkiston istiqloli uchun muttasil davom etgan ozodlik kurashining xususiyatlari va qutlug' intihosini yoritishdan iborat.

Mustaqillik yillarida chorizmning Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati va uning mohiyati, mustamlakachilar tomonidan o'lkaning milliy boyliklarining talanishi mustamlakcha boshqaruv apparatining vujudga kelishi masalalari keng va atroflicha ochib berildi. Bunda tarichi olimlarimiz tomonidan yaratilgan O'zbekistonning yangi tarixi birinchi kitob Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida Toshkent Sharq 2000. kitobini alohida qayt etib o'tish lozim. Shuningdek, mustaqillik yillarida yaratilgan O'zbekiston tarixi darslik va o'quv qo'llanmalarida ham mustamlakachilik davri tarixi haqqoniy o'qib berilmoqda.²³

Mustaqillik, shubhasiz, olamshumul tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy voqea bo'ldi. Ko'pgina qalam ahli, muarrixlar, olimlar sodir bo'lgan voqea ahamiyatini teran anglab yetganlari holda, mustamlakachilik davri tarixini haqqoniy ravishda, tarixchi olimlarimiz yoritib berdilar. Jumladan, Ziyoyev H, Alimova D,

²³Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий тарихи остида.-Т.: Янги аср авлоди, 2003. Ўзбекистон миллий

энциклопедияси. 1-12 жилд. –Т.: ЎМЭ, 2004, 2005. Шамсутдинов Р. ва бошқ. Ватан тарихи. К.2 /Маъсул мухаррирлар: Ў Мавлонов, Қ. Усмонов.- Т.: Шарқ, 2010.Шамсутдинов Р., Мўминов Х. Ўзбекистон тарихи.-Т.: Шарқ, 2013.

Shamsuddinov R, Karimov Sh, Isoqov F, Ziyayeva D²⁴ kabi olimlarimiz o`z tadqiqot va asarlarida mustamlakachilik davri tarixining tub mohiyatini ochib berganlar.

Ushbu mulalliflar o`z asarlari orqali Turkistonning chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so`ng, o`lkada o`z hukmronligini saqlab qolish va uni mustahkamlashni birinchi darajali vazifa hisoblagani shu bois, o`lkani boshqarish yuzasidan yaratgan 1865, 1867 yillardagi nizon lohiyalari, Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi, 1886-yilgi nizom va uning mohiyati, Turkistonda mustamlakacha boshqaruv apparatining vujudga kelishi masalalari yangi faktik ma`lumotlar asosida ochib beriladi.

1868-yilda imperiya ministrlar kengashi tomonidan Turkiston general-gubernatorligida boshqarishni tashkillash yuzasidan o`zining mustamlaka boshqaruv tizimini yaratish vazifasi yuklatilgan. Huddi shu ko`rsatma asosida biz yuqorida ta`kidlagan nizomlar yaratilgan. O`lkamizda Rossiya osqinidan so`ng, vujunga kelgan ma`muriy-hududiy boshqaruv masalalari, aholining tarkibidagi o`zgarishlar, Turkiston general-gubernatorligi tashkil qolingandan boshlab to 1917-yilga qadar, general-gubernatorlik qilgan 15 ta shaxs va ularning faoliyati masalalari, Rossiya bosqini natijasida Qo`qon xonligining tugatilishi, Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan vassalga aylantirilishi

²⁴ X. Зиёев. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида. (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари) –Т.: Шарқ, 2006. Каримов Ш. Шамсутдинов Р Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида Андижон 1996., Шамсутдинов Р, Хошимов С, Бозоров Қ История Андижана в документах и материалах (1876-1917 гг.) 1, 2 том. Т.: Шары, 2012. Shamsuddinov R; Karimov Sh., Ubaydullayev O`. Vatan tarixi. 2-kitob. Т.: Sharq, 2010; Тиллабоев С. Б. Туркистон Ўлкасининг маъмурий бошқарув тизимида маҳаллий аҳоли вакилларининг иштироки. – Т.: Фан. 2008 ; Юнусова Х. Тошкентда 1892-йилги халқ қўзғалони Т.: 1998. Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошларида Тошкентнинг “янги шаҳар” қисми тарихи. – Т: Фан ва технология, 2004. Усмонов Қ., Содиқов М., Обломуродов Н. Ўзбекистон тарихи 1-қисм. – Т. 2002 Мусаев Н. Туркистонда саноат ишлаб чиқаришнинг вужудга келиши ва ривожланиши тарихидан (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX ар бошлари). –Т., 2011. Иргашев Ф.Р., Абдурахимова Н. А. Мустамлакачилик сиёсати ва Туркистоннинг ижтимоий-иқтисодий аҳволи.- Т. Академия, 2005. Абдурахимова Н.А. Ўзбекистон Россия империяси таркибида. Ўзбекистон давлатсиҳлиги тарихи очерклари.- Т. Шарқ., 2001. Аҳмедов С. Тарихий ҳақиқат.// Исмоил Гаспринский ва Туркистон. – Т. Шарқ, 2005. Алимова Д. Жадидчилик ҳаракати ва унинг ижтимоий-сиёсий моҳияти. Жадидларнинг давлатчиликка оид қарашлари// Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари.- Т. Шарқ, 2001

masalalari shunnig barobarida bu ikki davlatning siyosiy tuzunmi, boshqaruvi masalalari o`lkamizda vujudga kelgan taraqqiyparvarlik harakati, jadidlarning milliy davlatchilikni tiklash haqidagi g`oyalari va amaliy faoliyati masalalari mustaqillik yillarida yaratilgan yuqoridagi biz ta`kidlagan tadqiqotchilarning asarlarida keng va atroflicha, ochib berilgan. Shuningdek, ushbu muarrixlar tomonidan o`z asarlari va ilmiy ishlari orqali o`zbek davlatchiligining kelib chiqishi, tarixiy ildizlari masalalari va shunnig barobarida mustamlakachilik davridagi boshqaruv tartibot masalalari hozirgi kunga qadar davlatchilik tarixiga oid nashr yuzini ko`rgan turli tuman tadqiqotlarni ummulashtirish, qiyosiy o`rganish, muommo bo`yicha turli konsepsiyalarni tadqiq etish asosida ushbu davrdagi mustamlakacha harbiylashgan boshqaruv masalalarni ochib berishadi. Ushbu asarlarda mustamlakachilik davrida Turkiston o`lkasining ma`muriy-hududiy tuzilishi, aholisi undagi viloyatlar, birktilrilgan hududlar, Turkiston general-gubernatorligi va uning tuzilishi, markaziy boshqaruv sistemasi viloyat boshqaruvi shahar boshqaruvi, tuman idora uslubi, qishloq boshqaruvlariga oid keng va atroflichaa ma`lumotlar beriladi. Shuningdek, o`lkada mustamlakachilar tomonidan joriy etgan favqulotda holatlar, Toshkent shahar Dumasi uning tashkil etilishi, Sirdaryo harbiy gubernatori boshchiligida maxsus hay`at tuzilishi bu davrdagi saylovning shovunistik harakterlari masalalari keng va atroflicha ochib beriladi.

Shuningdek, chor Rossiyasi bosqini davridagi davlat qurilishi, boshqaruv shakllari va mustamlakacha tartibot davridagi davlatchilik hamda mahalliy boshqaruv tarixi masalalarini biz tadqiqotchilar Sagdullayev A., Mavlonov O`., Abdullayev O`. I., Saidahmedov I., Ziyoyev A., Eshov B²⁵. kabi tadqiqotchilarning asarlari orqali bilib olishimiz mumkin. Ularda o`zbek davlatchiligining kelib

²⁵ Зиёев А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Т. Шарқ, 2000; Сагдуллаев А., Мавлонов Ў Ўзбекистонда давлат ва бошқарув тарихи. – Т: 2006; Абдуллаев Ў. И. Ўрта Осиёда қадимги бошқарув ва илк давлатчилик тарихшунослиги. –Т. Академия, 2009; Саидахмедов И. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т. Фан, 2006; эшов Б. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Т. Шарқ, 2007; Унинг Ўзи. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. -Т Янги аср авлоди, 2012.

chiqishi, tarixiy ildizlari masalalari va shunnig barobarida mustamlakachilik davridagi boshqaruv tartibot masalalari hozirgi kunga qadar davlatchilik tarixiga oid nashr yuzini ko`rgan turli tuman tadqiqotlarni ummulashtirish, qiyosiy o`rganish, muommo bo`yicha turli konsepsiyalarni tadqiq etish asosida ushbu davrdagi mustamlakacha harbiylashgan boshqaruv masalalarni ochib berishadi. Ushbu asarlarda mustamlakachilik davrida Turkiston o`lkasining ma`muriy-hududiy tuzilishi, aholisi undagi viloyatlar, birkirilgan hududlar, Turkiston general-gubernatorligi va uning tuzilishi, markaziy boshqaruv sistemasi viloyat boshqaruvi shahar boshqaruvi, tuman idora uslubi, qishloq boshqaruvlariga oid keng va atroflichaa ma`lumotlar beriladi. Shuningdek, o`lkada mustamlakachilar tomonidan joriy etgan favqulotda holatlar, Toshkent shahar Dumasi uning tashkil etilishi, Sirdaryo harbiy gubernatori boshchiligida maxsus hay`at tuzilishi bu davrdagi saylovning shovunistik harakterlari masalalari keng va atroflicha ochib beriladi. Xususan, B. Eshovning biz yuqorida qayd etgan O`zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi asarida mustamlakachilik davrida Toshkent shahar Dumasiga, davlat boshqaruv apparatlariga har to`rt yilda bir marta saylov bo`lib o`tgani saylovda 25 yoshga to`lgan, shaharda ko`chmas mulki bo`lgan rus fuqarolari, savdo va kosibchilik guvohnomalari bo`yicha shahar solig`ini to`laydigan, qarzlari bo`lmagan va sudlanmagan shaxslar ishtirok etish masalalari atroflicha ochib beriladi.

Xullas, ushbu davrda mualliflar ana shu mustaqillik ruhi bilan sug`orilgan ustuvor uslubiy va ilmiy-nazariy yo`l-yo`riqlardan, metodologik asoslardan kelib chiqqan holda maskur mavzuni imkon darajasida mukammalroq yaratishga harakat qildilar. Tadqiqot, shu tariqa, Chor Rossiyasining O`rta Osiyoni bosib olishi va uning bu o`lkada o`rnatgan mustamlakachilik siyosati oqibatlarini xolisona yoritish bo`yicha dastlabki qadamlardan biri bo`lib, undan kuzatiladigan asosiy maqsad Rossiya va sobiq Sho`ro davlatining Turkiston o`lkasida 130 yil davomida olib borgan mustabidlik siyosati tub mohiyati va yurtni majruh etgan asorati sabablarini ochib berish hamda Turkiston istiqloli uchun muttasil davom etgan ozodlik kurashining xususiyatlari va qutlug` intihosini yoritishdan iborat.

II Bob. Mustamlakachilik davri tarixiga oid mavjud o`sha davrning tarixiy hujjatlari muhim manbalar sifatida

2.1. Qonun chiqarish aktlari, ish yuritish xujjatlari, siyosiy partiyalar va tashkilotlar xujjatlari.

Mustaqillik yillarida O`zbekiston tarixining qator dolzarb masalalarini o`rganishda aniq va haqqoniy tarixiy yondashuv masalasi muxim o`ringa ko`tarildi. Zero, yurtboshimiz ta`kidlaganidek, “Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini, o`z maqsad muammolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma`naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi”.<sup>26</sup> Ayniqsa, o`zbek davlatchiligi, uning mustamlaka davrida kechgan tarixini viloyatlar misolida chuqur o`rganish va taxlil qilish, tarixiy manbalardagi ma`lumotlarni ilmiy muomilaga kiritish maqsadida tadqiqotlar olib borish shu kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Shunday dolzarb masalalardan biri chor mustamlakachiligi davridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, tarixiy-madaniy hayotini birlamchi manbalar asosida qiyosiy taxlil qilish va xolisona o`rganishdir.

Ta`kidlash joizki, Turkistonning mustamlakachilik yillaridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotini tadqiq etishda birlamchi manbalarning o`rni beqiyosdir. Shuningdek, mustamlakachilik davrida Turkistonning ijtimoiy iqtisodiy axvoli, xalqning turmushida kechgan o`zgarishlar, mustamlakachi ma`murlarning o`lka xalqlariga o`tkazgan zulmlari, zulmlarga qarshi xalqning erk va ozodlik uchun kurashlari, uezd xalqining mustamlakachi boshqaruv davridagi turmush tarzi o`sha davr birlamchi manbalari asosida ochib shu kunning dolzarb mavzulari sirasiga kiradi.

Bu borada shuni ta`kidlab o`tish o`rinliki, O`zbekistonning yangi tarixini yozish konsepsiyasi xaligacha o`rganilmagan manbalar turkumini faollik bilan izlab topish va ilmiy muomalaga kiritish, ularni chuqur o`rganish, ilmiy ahamiyat

²⁶ Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Тошкент, Маънавият, 2008.-Б.97.

va ma'lumotlarning ishonchli ekanligini aniqlash zarurligini taqazo qiladi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 27 iyulda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risi"dagi qarorini eslash o'rinlidir. Mazkur qarorda barcha arxeologik va yozma manbalarni to'plash hamda ularni ilmiy-qiyyosiy tarzda tahlil etish va bir tizimga solish zarurligi qayd etilgan.²⁷

Shu bois ham chor Rossiyasi mustamlakachilik davri tarixiga oid mavjud manbalarni to'plash va ularni o'quvchilarga yetkazish birlamchi vazifalar sirasiga kiradi. Chunki, ushbu manbalarda Rossiya bosqini arafasida va mustamlaka yillarida O'rta Osiyo xalqlari hayotining barcha qirralari imkon darajasida qamrab olingan.

Mustamlakchilik davriga tarixiga oid manbalar birinchi navbatda birlamchi manbalar o'sha davrga oid qonunchiqarish hujjatlari, statistik ma'lumotlar, esdalik va xotiranomalar, arxiv hujjatlari, davriy matbuot nashrlari, o'sha davr va keyingi davr muarrixlari asarlarida hamda turli xildagi "Sbornik"larda O'rta Osiyoning tarixi, iqtisodi, etnografiyasi, tabiiy iqlim sharoiti, qazilma boyliklari haqida juda ham boy ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ushbu manbalarda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini, siyosiy va madaniy hayotini aks ettiruvchi ko'plab ma'lumotlar ham keng o'rin olgan. Mustamlakchilik davri tarixiga oid arxiv hujjatlari va boshqa manbalar materiallarning qimmati shundaki, ulardagi keltirilgan ma'lumotlar birlamchi manba ekanligi bilan ham qadrlidir. Shuningdek, o'sha davr mualliflari yozgan asar va esdaliklar ham mualliflarning voqealarni bevosita guvohlari yoki ishtirokchilari sifatida yozgani bilan ham ishonarlidir. Shuning uchun ham ko'plab tadqiqotchilar Turkiston o'lkasining mustamlaka yillari tarixining u yoki bu qirralarini o'rganishda o'sha davrga oid manbalardagi ma'lumotlariga murojaat qilganlar. Biroq, ushbu davrga oid manbalarning ko'pi to'liq ravishda xaligacha o'rganilmagan va ilmiy muomalaga kiritilmagan. Ularni mustaqilligimiz g'oyasi talablari asosida bir tizimga solish, boshqa manbalar bilan taqqoslagan holda

²⁷ Каранг. Халк сўзи. 1998. 28 июль.

tanqidiy mushohada qilish nafaqat Turkistonning mustamlakchilik davri tarixini chuqurroq o'rganishga, shu bilan birga haqqaniy tariximizni tiklashda, vatanimizning mustamlaka o'tmishi haqidagi bilimlarimizni yanada boyishiga yordam beradi.

XIX asrning ikkinchi yarmida chor Rossiyasi O'rta Osiyoni bosib oldi va asta sekinlik bilan bu o'lkani o'z mustamlakasiga aylantirdi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi rasman mustaqil davlatlar sifatida saqlanib qolgan bo'lsada, amalda ular Rosiyani vassaliga aylandilar. Mustamlakachlik davri to 1917 yilgi Fevral inqilobiga qadar davom etdi.

Mustamlakachilik davrida tarixiy manbalarning xili va turi ko'paydi. Turkistonda faoliyat ko'rsata boshlagan mustamlakachilik ma'muriyatining barcha bo'g'inlarida xilma-xil ish yuritish xujjatlari yaratila boshlandi. Qonun chiqarish aktlari bilan birga bu xujjatlar muxim tarixiy manbalar qatoriga kiradi.

Bu davrda Turkiston o'lkasining mustamlaka maqomi bir necha qonun chiqarish aktlarida o'z aksini topdi. Ular asosan 1865, 1967 va 1886 yillarda e'lon qilingan o'lkani boshqarish xaqidagi nizomlardir. Rossiya imperatorlari tomonidan tasdiqlangan ushbu nizomlarda Turkiston o'lkasini boshqarishning asosiy tamoyillari, mustamlakachi ma'murlarining vakolatlari, maxalliy xalqning siyosiy xuquqsizligi, yurtimizning metropoliya xom ashyo bazasiga aylantirilganligi o'z aksini topgan.

Yuqorida eslatib o'tilgan nizomlardan tashqari, rus podshosi chiqargan farmonlar xam muxim manbalar qatoriga kiradi. Masalan 1916 yil 25 iyunda podsho Nikolay II tomonidan chiqarilgan Turkiston axolisini front orqasidagi ishlarga jalb qilish to'g'risidagi farmonda o'lkamizda sodir bo'lgan yirik xalq xarakatlarining sabablari va tarixiy shart-sharoitlarini tushinib etishda muxim ahamiyatga egadirlar.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkiston o'lkasini boshqarish bilan mashg'ul bo'lgan idoralarda, korxonalarda va boshqa idoralarda ish yuritish xujjatlari yo'lga qo'yildi. Natijada o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy axvolini

o'zida aks ettirgan yuzlab xujjatlar yaratildi. Bunday xujjatlarni quyidagi uchta asosiy guruxlarga bo'lish mumkin.

1. Davlat muassasalari xujjatlari.
2. Banklar, xususiy korxonalar va shirkatlar (firmalar) xujjatlari.
3. Siyosiy partiyalar va tashkilotlar xujjatlari.

XIX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan xujjatlar asosan qo'lyozma shaklida edi²⁸.

XX asrning boshlarida yozuv mashinkasi tobora keng tarqalib borishi bilan xujjatlar chop qilina boshlandi. Davlat muassasalari xujjatlari, shakl va muamun jixatidan xilma-xildir. Ular asosan protokollar (jurnallar va stenogrammalar), xisobotlar, muqotiba xamda buxgalteriya, diplomatik, xarbiy va sud-tergov xujjatlaridan iboratdir.

O'z RMDA da saqlanayotgan Rossiyaning Qo'qon, Buxoro va Xiva xonliklari xamda qo'shni mamlakatlar bilan tuzgan shartnomalar diplomatik xujjatlar namunasidir. Sud va tergov xujjatlarini o'rganish chog'ida Turkistonda sodir bo'lgan milliy-ozodlik xarakatlari (Dukchi eshon qo'zg'oloni, 1916 yil qo'zg'oloni va xakazo) xususida ma'lumotlar olish mumkin. Iqtisodiy tarix masalalarini tadqiq etishda banklar, xususiy korxonalar va shirkatlarning xujjatlari muxum axamiyat kasb etadi.

O'rta Osiyo Rossiyaga qo'shib olingandan so'ng bu erlda turli siyosiy tashkilotlar va partiyalar vujudga keldi va faoliyat ko'rsatdi. Ular o'z faoliyati davrida qator xujjatlar yaratdilar. Bu xujjatlar ularning siyosiy maqsadlari va faoliyati yo'nalishlarini aniqlashda katta rol o'ynaydi. Siyosiy tashkilotlar va partiyalar xujjatlari ularning dasturi va maromnomalaridan (programmasi va ustavidan), ish yuritish xujjatlaridan, varaqalar, muqotiba va boshqalardan iboratdir.

Bunday xujjatlardan dastlabki umumrus siyosiy partiyalarining Turkistonda faoliyat ko'rsatgan tashkilotlarga tegishlidir. Eserlar, sotsial- demokratlar

²⁸ Хошимов С. А. , Расулов Б. М. , Хакимов А. А. Манбашунослик. –Т.; 2014 –Б. 115

(bolsheviklar va mensheviklar), kadetlar va boshqa tashkilotlarning oz bo'lsada saqlanib qolgan xujjatlarida ularning bu erda olib borgan faoliyatining asosiy yo'nalishlari o'z aksini topgan. Masalan, eserlar partiyasining 1907 yilda «Sen kurashda o'z erkingni qo'lga olasan» sarlavxali dexqonlarga qaratilgan o'zbek tilidagi varaqasida partiya siyosatnining asosiy maqsadlari bayon qilingan. XX asrning boshlarida Turkistonda maxalliy axoli vakillarini birlashtirgan. Avvalo erlik xalq manfaatlarni ximoya qilgan siyosiy tashkilotlar va partiyalar maydonga chiqdilar. Bular jadidlar tashkilotlari («Taraqqiyparvarlar firqasi, yosh buxoroliklar va yosh xivaliklar partiyalari va xokazo) «SHuroiy islomiya» va «SHuroi ulamo» jamiyatlari, Turkiston federalchilar partiyasi va boshqa siyosiy tashkilotlardir. Bu siyosiy tashkilotlar xujjatlarining juda oz qismi bizgacha etib keldi. Saqlanib qolgan xujjatlar mazkur tashkilotlar va partiyalar faoliyatining eng muxim yo'nalishlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Masalan, Turkiston o'lka musulmonlari Soveti («SHuroi islomi»)ning 1918 yili fevralda Turkiston muxtoriyatini bostirish jarayonida Qo'qonda qizil askarlar sodir etgan xunrezlik munosabati bilan chiqargan «Farg'ona muzofati fuqorolariga» nomli murojaatnomasini o'qisak, biz bu tashkilot o'lkada tinchlik va osoyishtalik millatlararo totuvlik tarafdorlari bo'lganligini bilib olamiz. Bu xujjat sovet «Shuroi islomiya» sha'niga yog'dirilgan bo'xtonlarni rad etadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha asosiy manbalar O'zbekiston Markaziy Davlat arxivida mujassamlashgan. Uning tarixiy jamg'armasida Turkiston o'lkasidagi barcha iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy voqealarga oid katta va keng daliliy materiallar o'rin olgan.

Turkiston general-gubernatorligining mahkamasi jamg'armasi (TF-I) da o'lka hayotining barcha masalalarig oid materiallar mavjud. Rus mustamlaka siyosatining barcha ustamonliklari xuddi shu jamg'armadagi hujjatlarda o'z aksini topgan. Ana shu mahkama jamg'armasida Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman (1867-1881), M.G.Chernyayev (1882-1884), N.O. Rozenbax (1884-1889), A.B. Vrevskiy (1889-1898), S.Duxovskiy (1898-1901), N.A.Ivanov (1901-1904), P.N.Tevyashov (1904-1905), D.I.Subbotich (1905-1906), N.I.Grodekov

(1906-1908), P.I.Mishchenko (1908-1909), A.V.Samsonov (1909-1913) va boshqalarning imperatorga yuborgan xisobotlari va harbiy vazirlik Bosh shtabi Osiyo bo`limi bilan yozishmalaridan unumli foydalanildi. Ularda podsho hukumatining O`rta Osiyoda olib borgan mustamlaka siyosatining tub mohiyati o`z ifodasini topgan.

Kitob mavzusiga doir qator manbalar Turkistonda viloyatlari harbiy gubernatorlari boshqarmalari jamg`armalaridan (5, 17, 18, 19, 276-jamg`armalar) olingan. Bu boshqarmalarda xo`jalik, moliya, narx-navolar, soliq-majburiyatlar kabi qator muhim masalalar bo`yicha hujjatlar borki, ularning tahlili o`lka tarixining muhim tomonlarini yoritishda bebaho manbalar vazifasini o`taydi. Toshkent shahar dumasi va boshqarmasi (718, 37), shahar boshlig`I (36), viloyatlar tumanlari boshqarmalari (20, 21, 22, 23, 24, 25, 300, 329), jabhalar pristavlari (172, 298, 319, 327) jamg`armalari ham shular qatoriga kiradi.

Turkistondagi milliy-ozodlikharakatlari, istiqlol uchun kurash tarixi bo`yicha haligacha ilmiy muomalada bo`magan talay noyob hujjatlar rus siyosiy razvedkasi – Turkiston tuman muhofaza bo`limi (461), Toshkent shahri rus qismi va eski shahar politsiyasi boshqarmalari (462, 463), Jizzah shahar politsiya pristavi (531), Andijon, Skobelov shaharlari politsiya boshqarmalari (465, 590) jamg`armalaridan topildi. Toshkent okrug sud palatasi (129, 133), Turkiston o`lka okrug sudlari (128, 132, 278, 318, 350, 505), viloyatlar sudlari (127, 134, 353, 310, 322, 504, 592, 593) jamg`armalaridan ham zarur hujjatlari olindi²⁹.

O`zbekiston xalqlari tarixi Davlat muzeyi va Toshkent teplovoz-vagon ta`miri zavodi muzeyida saqlanayotgan 1905-1917 yillar voqealari ishtirokchilarining esdaliklari, hujjatlari (D.Ustaboyev, S. Qosimxo`jayev, O.Bobojonov, M.Mirxodiyev va boshqalar) va Turkiston vaqtli matbuoti nashrlaridan ham unumli foydalanildi.

Imperatorning ijtimoiy va siyosiy nayranglarini fosh etuvchi qator noyob hujjatlarni ana shu arxivdan qo`lga kiritish mumkin bo`ldi.

²⁹ Хошимов С. А. , Расулов Б. М. , Хакимов А. А. Манбашунослик. –Т.; 2014 –Б. 121

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda zo`ravonlik bilan amalga oshirilgan rus istilosi va bu bosqinchilikning daxshatli oqibatlariga bag`ishlangan qo`lyozma manbalar – tarixiy asarlar, hujjatlar, manzumalar ham Benazir ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tarixshunoslikda bu tajovuz tarixini hozirga qadar bir yoqlama, faqat rus manbalari asosida yoritishga intilish kuzatiladi. Holbuki, mustabidlar to`kkan qonlar sovumay turib Toshkentda, Andijonda, Samarqandda, Buxoroda, Qo`qonda, Xivada, Namanganda, Qarshida, Jizzaxda va boshqa shaharlarimizda yozilgan asarlar – ular xoh tarixiy, xoh badiiy hujjat bo`lsin, tamomila unut bo`lib keldi.

Rus istilosiga doir qo`lyozma manbalarni uch turkumga ajratish maqbul ko`rinadi. Bu jihatdan, tarixiy asarlar birinchi turkumni tashkil etadi, deyish mumkin. Xususan, Muhammad Solih Toshkendi, Mulla Muhammad Niyoz Ho`qandiy, Avaz Muhammad Attor Ho`qandiy, Muhammad Aziz Marg`iloniy, Muhammad Sodiq Munshiy, Muhammad Abdulazim Somiy, Mirzo Olim Mushrif, Ahmad Donish, Komil Xorazmiy, Mirzo Olim Toshkandiy, Muhammad Fozilbek, Muhammad Hakimxon to`ra, Ishoqjon Jo`naydullaxoja Ibrat, Ahmad Zakiy Validiy asarlarini shu sirasiga kiritish mumkin bo`ladi.

Domullo Muhammad Solihning “Tarixi jadidai Toshkand” asari 1862-yilda yozila boshlanib, 1886-1887 yillarda tugallangan. Ikki jildidan iborat qilib tuzilgan bu asarning birinchi qismida islom va umuman, o`rta asrlar Markaziy Osiyo tarixi yoritilgan bo`lsa, ikkinchi jildda XIX asr Qo`qon xonligi kechmishi qalamga olinadi. Muarrix 3 bobdan iborat bu jildda faqat Qo`qon xonligida yuz bergan rus istilosi oqibatlarini keltirish bilan cheklanmay, Buxoro amirligi voqealariga ham keng to`xtaladi. Muallifning Toshkent, Marg`ilon, Namangan, Andijon, Samarqand kabi shaharlarning ruslar tomonidan zabt etilishi haqida o`zi guvoh bo`lgan voqealar asosida fikr yuritishi alohida qimmatga egadir.

Mirzo Muhammad Abdulazim Somiy Bo`stoniyning “Dorussaltana Buxoroyi sharif mang`it sultonlari tarixi” 1906-yilda yozilgan. Asar mamlakatda hukm surib kelayotgan parokandalik, o`zaro nizolar oxir-oqibatda yurtning mustamlakaga aylanib qolishida asosiy omil bo`lganligini anglashda muhim manba hisoblanadi.

Ayni vaqtda asarda xalqning bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashi manzarasi ha yorqin aks etiriladi.

Mullo Muhammad Niyoz Ho`qandiyning “Tarixi Shohruhiy”, Avaz Muhammad Attor Ho`qandiyning “Tarixi jahonnamoyi”, Ishoqjon Ibratning “Farg`ona tarixi”, Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarai Xorazmshohiy”, Hoji Muhammad Hakim Sayid Ma`sumxonning “Muntaxab ut-tavorix”, Mirzo Muhammad Sodiq Munshiyning “Musannofoti Mirzo Sodiq Munshiy”, Mirzo Olim Munshifning “Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin” (Qo`qon xonligi tarixi), “Tarixi Manzum”, Muhammad Aziz Marg`iloniyning “Tarixi Aziziy” (Farg`ona chor mustamlakasi davrida), Ahmad Donishning “Tarjimat al-ahvol amironi Buxoroyi sharif”, Hamid bin g`ozi Baqo Hojaning “Tanzil ul-misol zikr bayon al-ahvol”, Muhammad Fozilbekning “Mukammal-I tarixi-I Farg`ona” asarlarida ham rus istilosiga daxldor voqea-hodisalar batafsil bayon etiladi.

O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti (O`zRFASHI) jamg`armasida saqlanayotgan va yuqorida zikr etilgan tarixiy asarlardan tashqari mavzuni to`ldirishda asqotadigan “Tarixi jadidai Toshkand” (11072-raqamli), “Tarixi Alimquli amiri lashkar” (12136-raqamli), “Alimqul jamgnomasi” (Xolbek ibn Mullo Andijoniy asari, 8816-raqamli), “Jangnomayi Xudoyorxoniy” (Mullo Sahmsi asari, 599/1-raqamli), “Taskirayi Sultoniy” (Mullo Vasiyjon asari, 592-raqamli), “Xudoyorxonning so`nggi kunlari” (Ahmad Zakiy Validiy asari, 15743-raqamli), “Taskirayi xazrati Majzub Namangoniy” (2662/11-raqamli), “Fathnomayi Sultoniy” (Mirzo Olim Buxoriy asari, 1838-raqamli), “Tajovuzi o`rus” (Qozi Abdulvohid Sadr-Sariri Balxiy asari, 2260/IV-raqamli), “Tuhfayi Shohiy” (Mirzo AbdulazimSomiy asari, 2091-raqamli), “Zarafnomai Xudoyorxoniy” (Abdul G`ofur asari, 598-raqamli), “Tuhfat ul-xoniy” (Muhammad Vafo Karminagiy asari, 5359/11-raqamli), “Tarixi amir Haydar” (mullo Ibodullo Muhammad Sharif asari, 1836-raqamli), “Tarixchayi Turoniy” (Umididdin Marg`iloniy asari) singari qo`lyozma manbalarni ham istifoda doirasiga kiritish joiz hisoblanadi. Bu tarixiy manbalarning ayrimlarida uchraydigan cheklanishlar,

xonlarningayrim xatti-harakatlariga ortiqcha baho berish jihatlaridan qat'i nazar, o'tmishni oydinlashtirishda ular ahamiyati bo'lakchadir³⁰.

Rossiya xukmronligi davrida Turkistonda gazeta va jurnallar nashr etish, matbaalar qurilib, kitob chop etish yo'lga qo'yildi. 1870 yilda «Turkestanskije vedomosti» gazetasi bilan bir vaqtda o'zbek tilida birinchi ro'znoma «Turkiston viloyatining gazetasi» nashr qilina boshlandi. XX asrning boshlarida jadidlarning sa'y-xarakatlari bilan «Xurshid», «Taraqqiy», «Tujjor», «Sadoiy Turkiston», «Sadoiy Farg'ona», «Buxoroiy SHarif» singari gazeta va jurnallar nashr etildi. 1905 yilda bolshevik Morozov «Samarqand» nomli gazetani nashr eta boshladi. Fevral inqilobidan so'ng «Xurriyat», «Turk eli» va boshqa ro'znomalar chiqarildi. Matbuot saxifalarida e'lon qilingan maqola va xabarlar Turkiston o'lkasi hayotining turli masalalariga oid juda ko'p ma'lumotlar beradi. Lekin davriy ma'lumot materiallari xam ayrim nuqsonlaridan xoli emas. Birinchidan, juda ko'p gazeta va jurnallar nashrlarining moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi sababli 1-2 yil, ayrimlari esa undan xam ozroq muddat davomida nashr qilingan xolos. (Mustamlakachi ma'murlar organi bo'lmish «Turkestanskije vedomosti» va «Turkiston viloyatining gazetasi» bundan mustasno). Ikkinchidan, matbuot organlarida ba'zi voqealar to'g'ri va ob'ektiv tarzda yoritilmagan. Masalan 1898 yilgi Andijon qo'zg'olonidan so'ng, Turkiston viloyatining gazetasi Duchki eshon shaxsiga salbiy baxo bergan, bir necha maqola bir she'rlar e'lon qildi. Bu xolni mazkur gazeta mustamlakachi ma'murlarning pozitsiyasida turgani bilan izoxlash mumkin. Demak, gazeta va jurnallar materiallaridan foydalanilganda bu matbuot organlarining siyosiy pozitsiyasi va mafkuraviy yo'nalishini e'tiborga olish zarur. Shunday bo'lsada, davriy matbuot saxifalarida e'lon qilingan materiallar muxim tarixiy manbalar qatoriga kiradi.

Ikkinchi turkum manbalar bevosita mahalliy hukmdorlar bilan rus armiyasi qo'mondonligi o'rtasida amalga oshirilgan sulhga doir hujjatlar, tarixiy shaxslarning xotiralarini qamraydi.

³⁰ Хошимов С. А. , Расулов Б. М. , Хакимов А. А. Манбашунослик. –Т.; 2014 –Б. 115

Rus bosqinidan so`ng vujudga kelgan vaziyat, mustamlaka siyosatining o`rnatilishi, vassallik sitamlari, elchilik bordi-keldilari ham qator hujjatlarda, esdaliklarda o`z ifodasini topadi. Komil Xorazmiy, Ahmad Donish va boshqa elchilarning, shuningdek, amir Abdulahadning Peterburgga qilgan safarlari haqidagi ma`lumotlar shular jumlasidandir.

Qo`lyozma manbalarning uchinchi turkumi mundarijasini badiiy asarlar: she`rlar, manzumalar tashkil etadi. Rus istibdodidan, so`ng u keltirgan “madaniyat va ma`rifat” ni ulug`lovchi asarlar maxsus buyurtmalar asosida yozilganligi ma`lum. Biroq, yurtning fidoyi shoirlari bosqinchilikni qoralab, uning mudhish oqibatlarini la`natlab she`rlar yaratganlar. Jumladan, 1912-yilda G`ulom Hasan Orifjonov matbaasida XVI asr shoiri Mushfiqiyning “Sadi yak band” to`plamida XIX asr ikkinchi yarmida yashab ijod etgan qashqadaryolik shoir Hofiz Ro`ziboy Mashrab va Muhammad Amin Ho`qandiylarning rus istilosiga doir manzumalari qo`shib berilgan. “Hikmat” deb nomlangan va shu asar oxirida keltirilgan she`rlarda yassaviyona ruhda bosqinchilarning razil basharasi, xotin-qizlarga nisbatan qilganqabihliklari fosh etiladi.

Rus bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashib halok bo`lgan lashkarboshi Alimqul jasorati haqida 10 yil Sibir badarg`asida bo`lgan vatanparvar Mullo Holibek ibn Muso Andijoniy doston yaratgandir.

Kamina, Xayoliy, Nosir, Tarjimon singari shoirlarning asarlarida ham rus bosqini tufayli xalqimiz boshiga tushgan kulfatlar ifoda etiladi. Buxoro amiri, Ojiz taxallusi bilan she`rlar yozgan amir Abdulahad she`rlarida ham ichki agsus-nadomat sharorasi sezilib turadi. Shubhasiz, hozirga qadar e`lon qilinmagan, o`rganilmagan, ammo rus istilosi haqida bor haqiqatni badiiy gavdalantirgan asarlar tarixiy voqelikni xolisona, bo`toqlarsiz idrok etishda muhim manba bo`lib hisoblanishga loyiqdir.

Xullas, yurtimizda chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida kechgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot masalalarini yoritishda ushbu davrlarga ya`ni mustamlakachilik davri tarixiga oid birlamchi manbalar jumladan Rossiya elchilari hamda sayyohlarining esdaliklarini tanqidiy ravishda o`rganish va

tegishli ilmiy xulosa chiqarish muxim ahamiyatga ega. Tarixiy manbalarni o'rganmasdan turib, bo'lib o'tgan tarixiy voqealar to'g'risida to'g'ri ilmiy xulosa chiqarish mumkin emas. Faqat asl manbalargina o'sha davr voqealari tarixidan chuqur anglash imkonini beradi.

2.2. Statistik manbalar va davriy matbuot materiallari, esdaliklar va boshqa memuar manbalar.

Turkiston o'lkasi chor Rossiyasining mustamlakasiga aylantirilgandan so'ng, bu erda statistika xizmati yo'lga qo'yildi. Muntazam ravishda butun Turkiston general-gubernatorligi, viloyatlar va uездlar miqyosida iqtisodiy va ijtimoiy hayotga doir ma'lumotlar yig'ish yo'lga qo'yildi. Ayrim burjua tashkilotlari (birjalar, banklar, shirkatlar sarmoyadorlar uyushmalari) o'z faoliyatlariga doir ma'lumotlar yig'ishga va e'lon qilishga kirishdilar. Bu ma'lumotlarni bir qismi o'sha davrda aloxida statistik to'plamlar shaklida nashr etildi. Boshqa qismlari esa arxivlarda saqlanmoqda. Statistik manbalar aloxida ahamiyati shundaki, ular juda ko'p asosan miqdoriy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu davrga oid statistik ma'lumotlardan ilmiy maqsadda foydalanish qator qiyinchilik bilan bog'liqdir. Birinchidan, ayrim statistik xisobotlarda «sanoat», «ishlab chiqarish», «korxona» singari atamalarda yagona yondashuv yo'q. Ikkinchidan, statistik ma'lumotlar ba'zan bir yoki ikki viloyat miqyosida yig'ilgan. Lekin butun o'lkani qamrab oluvchi ma'lumotlar uchraydi. Uchinchidan, juda ko'p statistik xisobotlarda bir xillilik xos emas. To'rtinchidan, ayrim statistik ma'lumotlar ishonchli emas. Bunday ma'lumotlardan foydalanish tanqidiy yondashuvni talab qiladi. Masalan, Rossiya «1897 yilgi Rossiya imperiyasi axolisini umumiy ro'yxatga olish» nomli statistik to'plamida Turkiston o'lkasi axoli savodxonligi 2 foiz deb berilgan. Bunda maxalliy axolini arab yozuvini bilishi e'tibora olinmagan. YUqorida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklardan qa'tiy nazar, statistik manbalar Turkiston o'lkasining bu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti xususida eng ishonarli va keng ko'lamli ma'lumotlar beruvchi muxim manbadir.³¹

Rossiya xukmronligi davrida Turkistonda gazeta va jurnallar nashr etish, matbaalar qurilib, kitob chop etish yo'lga qo'yildi. 1870 yilda «Turkestanskije vedomosti» gazetasi bilan bir vaqtda o'zbek tilida birinchi ro'znoma «Turkiston viloyatining gazetisi» nashr qilina boshlandi. XX asrning boshlarida jadidlarning

³¹ Б. А. Аҳмедов. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи. 2001.

sa'y-xarakatlari bilan «Xurshid», «Taraqqiy», «Tujjor», «Sadoiy Turkiston», «Sadoiy Farg'ona», «Buxoroiy SHarif» singari gazeta va jurnallar nashr etildi. 1905 yilda bolshevik Morozov «Samarqand» nomli gazetani nashr eta boshladi. Fevral inqilobidan so'ng «Xurriyat», «Turk eli» va boshqa ro'znomalar chiqarildi. Matbuot saxifalarida e'lon qilingan maqola va xabarlar Turkiston o'lkasi hayotining turli masalalariga oid juda ko'p ma'lumotlar beradi. Lekin davriy ma'lumot materiallari xam ayrim nuqsonlaridan xoli emas. Birinchidan, juda ko'p gazeta va jurnallar nashrlarining moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi sababli 1-2 yil, ayrimlari esa undan xam ozroq muddat davomida nashr qilingan xolos. (Mustamlakachi ma'murlar organi bo'lmish «Turkestantskie vedomosti» va «Turkiston viloyatining gazetasi bundan mustasno). Ikkinchidan, matbuot organlarida ba'zi voqealar to'g'ri va ob'ektiv tarzda yoritilmagan. Masalan 1898 yilgi Andijon qo'zg'olonidan so'ng, Turkiston viloyatining gazetasi Duchki eshon shaxsiga salbiy baxo bergan, bir necha maqola bir she'rlar e'lon qildi. Bu xolni mazkur gazeta mustamlakachi ma'murlarning pozitsiyasida turgani bilan izoxlash mumkin. Demak, gazeta va jurnallar materiallaridan foydalanilganda bu matbuot organlarining siyosiy pozitsiyasi va mafkuraviy yo'nalishini e'tiborga olish zarur. Shunday bo'lsada, davriy matbuot saxifalarida e'lon qilingan materiallar muxim tarixiy manbalar qatoriga kiradi.

Shuningdek, ushbu davrda muarrixlar tomonidan yaratilgan turli xildagi to'plamlar ham borki, o'sha davr tarixini ochish uchun qimmatli manba sanaladi. Ana shu yozma manbalar sirasiga, mamlakatimizning XIX asr oxiri- XX asr boshlari davri tarixiga doir alohida ahamiyatga ega bo'lgan 594 tom dan iborat, noyob "Turkestantskiy sbornik" nashrini kiritish mumkin. "Sbornik" asosan rus va xorijiy matbuot sahifalarida e'lon qilingan 10700 dan ortiq kitob, gazeta va jurnal materiallaridan tashkil topgan bo'lib³², ularda Rossiya bosqini arafasida va mustamlaka yillarida O'rta Osiyo xalqlari hayotining barcha qirralari imkon darajasida qamrab olingan.

³² Бобохўжаев М.А. Очерки социально-экономической и политической истории Афганистана (Конец XIX в.) Ташкент, Фан, 1975.-С.11.

“Sbornik”da Oʻrta Osiyoning tarixi, iqtisodi, etnografiyasi, tabiiy iqlim sharoiti, qazilma boyliklari haqida juda ham boy maʼlumotlar keltirilgan. Shuningdek, unda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Andijon uezdining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini, siyosiy va madaniy hayotini aks ettiruvchi koʻplab maʼlumotlar ham keng oʻrin olgan. “Turkestanskiy sbornik”ga kiritilgan materiallarning qimmatligi shundaki, ularning mualliflari oʻzlari yozgan voqealarning bevosita guvohlari yoki ishtirokchilari boʻlganligidadir. SHuning uchun ham koʻplab tadqiqotchilar Turkiston oʻlkasining mustamlaka yillari tarixining u yoki bu qirralarini oʻrganishda “Sbornik” maʼlumotlariga murojaat qilganlar. Lekin shunga qaramasdan “Sbornik”dagi asosiy manbalar qatlami xaligacha oʻrganilmagan va ilmiy muomalaga kiritilmagan. Ularni mustaqilligimiz gʻoyasi talablari asosida bir tizimga solish, boshqa manbalar bilan taqqoslagan holda tanqidiy mushohada qilish nafaqat Andijon uezdi tarixini chuqurroq oʻrganishga, shu bilan birga haqqaniy tariximizni tiklashda, vatanimizning mustamlaka oʻtmishi haqidagi bilimlarimizni yanada boyishiga yordam beradi.³³

Mustamlakachilik davri tarixiga oid muxim manbalardan yana biri bu koʻp jildlik «Turkestanskiy sbornik» nomli toʻplamdir. (594 jilddan iborat.) Ushbu davrda matbuot saxifalarida eʼlon qilingan minglab materiallarni oʻz ichiga olgan mazkur toʻplam oʻlkamizning tabiiy sharoiti, tarixi, iqlimi, iqtisodiyoti, axolisi, xorijiy mamlakatlar bilan savdo aloqalari xususida nixoyatda boy maʼlumotlar beradi.³⁴

Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti (OʻzRFASHI) jamgʻarmasida saqlanayotgan va yuqorida zikr etilgan tarixiy asarlardan tashqari mavzuni toʻldirishda asqotadigan “Tarixi jadidai Toshkand” (11072-raqamli), “Tarixi Alimquli amiri lashkar” (12136-raqamli), “Alimqul jamgnomasi” (Xolbek ibn Mullo Andijoniy asari, 8816-raqamli), “Jangnomayi Xudoyorxoniy” (Mullo Sahmsi asari, 599/1-raqamli), “Taskirayi Sultoni” (Mullo

³³Б. А. Ахмедов. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи. 2001.

³⁴ Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. –Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2008.

Vasiyjon asari, 592-raqamli), “Xudoyorxonning so`nggi kunlari” (Ahmad Zakiy Validiy asari, 15743-raqamli), “Taskirayi xazrati Majzub Namangoniy” (2662/11-raqamli), “Fathnomayi Sultoni” (Mirzo Olim Buxoriy asari, 1838-raqamli), “Tajovuzi o`rus” (Qozi Abdulvohid Sadr-Sariri Balxiy asari, 2260/IV-raqamli), “Tuhfayi Shohiy” (Mirzo Abdulazim Somiy asari, 2091-raqamli), “Zarafnomai Xudoyorxoniy” (Abdul G`ofur asari, 598-raqamli), “Tuhfat ul-xoniy” (Muhammad Vafo Karminagiy asari, 5359/11-raqamli), “Tarixi amir Haydar” (mullo Ibodullo Muhammad Sharif asari, 1836-raqamli), “Tarixchayi Turoniy” (Umididdin Marg`iloniy asari) singari qo`lyozma manbalarni ham istifoda doirasiga kiritish joiz hisoblanadi. Bu tarixiy manbalarning ayrimlarida uchraydigan cheklanishlar, xonlarningayrim xatti-harakatlariga ortiqcha baho berish jihatlaridan qat`i nazar, o`tmishni oydinlashtirishda ular ahamiyati bo`lakchadir³⁵.

Turkiston o`lkasining tarixi o`sha davrda yashab o`tgan arboblarning esdaliklari, kundaliklari va maktublarida xam o`z aksini topgan. Rus zobiti V. Tixmenevning «Xiva xonligining zabt etilishi» rassom V. Vereshchaginning «1868 yilda Samarqanda» xamda Fedchenko, Logofet, Xoroshxin, Aminov kabi olim va sayyoxlarning xotiralarida chor Rossiyasining Xiva xonligi va Buxoro amirligini bosib olish tafsilotlari, mustamlaka Turkistonning siyosiy va iqtisodiy axvoli aks etgan. Maxalliy mualliflar qalamiga mansub bo`lgan esdaliklar xam e`tiborga loyiqdir. Axmad Donish, Sadriddin Ayniy, Sadr Ziyo, Mirzo Abdulazim Somiy kabi tarixchi va yozuvchilarning qalamiga mansub asarlarda xuddi shu voqealar boshqacha nigox bilan yoritiladi. Muxammad Aziz Marg`iloniyning «Tarixiy Aziziy», Mirzo Olim Maxmud Xo`janing «Tarixi Turkiston», Avaz Muxammad Attor Xo`qandiyning «Tarixiy jaxonnomoyi», Muxammad YUsuf Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshohiy» nomli asarlarida Rossiya istilosi va uning og`ir oqibatlari konkret faktlar va jonli lavxalarda ko`rsatilgan.³⁶

Shuningdek, ushbu davr tarixi o`sha davr muarrixlarining asarlarida ham yoritilgan biroq, ushbu asarlar o`sha davr mafkurasida asosida yozilgani bois bu

³⁵ Хошимов С. А. , Расулов Б. М. , Хакимов А. А. Манбашунослик. –Т.; 2014 –Б. 116

³⁶ Б. А. Аҳмедов. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи. 2001.

asarlardan tanqidiy foydalanish joizdir. U davrning tarixiy-ilmiy kitoblarda rus mustamlakachilik siyosatiga doir tanqidiy fikr-mulohazalar deyarli uchramaydi. Chunki ularning mualliflari asosan boshqa xalqlarni tanishdan, ezishdan manfaatdor bo'lgan dvoryan-pomeshchiklar, zobitlar, savdo-sanoat korchalonlari, nufuzli amaldorlar bo'lishgan. Bu xil manbalarda ko'proq Rossiyaning Turkistonda qo'llay boshlagan iqtisodiy-siyosiy zug'umlarini oqlash saltanat hukmron doiralarning manfaati nuqtai nazaridan o'lkani o'zlashtirish bo'yicha yana qanday tadbirlar ko'rish zaruriyati bahs etiladi. Bu asarlardagi bosh g'oya, yetakchi yo'nalish, qanday bo'lmasin, saltanatning Turkistondagi tajovuzi va mustabid tizimini g'oyaviy asoslashga, yangi "ikkinchi rus Turkistoni" ni barpo etish uchun zarur yo'nalishlarni belgilashga qaratilishi bilan bog'liq edi. bu jihatdan general-leytenant M.A.Terent'evning "O'rta Osiyoning bosib olinishi tarixi" (1906) asarini qayd etish mumkin.³⁷

Kitobda O'rta osiyaning mustamlakaga aylantirilishi ahamiyati ko'rsatilib, birinchi foh K.P. fon Kaufmannning "o'lkani o'zlashtiruvchilik" faoliyatiga tahsinlar o'qiladi. Muallif rus dvoryanlari va kapitalistlarining manfaatlari himoyachisi sifatida qalam tebratadi.

Sankt-Petenburg zodagonlari vakili, o'lkashunos olim knyaz V.I.Masal'skiy³⁸ esa diqqatini Turkistondagi yer-suv masalalariga qaratib, arzon xom ashyosiga erishish uchun o'lkada paxta yakkahokimligini o'rnatish, ruslarni ko'paytirish choralarni ko'rish lozimligini uqtiradi. Podsho vaziri A.V.Krivoshein³⁹ ham asarlarida xuddi shu haqda fikr yuritadi.

O'lkaiqtisodiyotida oid asarlarda asosan hukmron davlat – Rossiya manfaatlari nuqtai nazaridan masalaga yondoshiladi, mustamlaka siyosatini mustahkamlash, shu orqali imkon qadar o'lkai qonini zulukdek so'rish chora va usulari bahs etiladi. Taasufki, ularda Rossiya istibdodi, milliy xo'rlash siyosatiga oid jiddiy tanqidiy fikr-mulohazalar o'z ifodasini topmagan.

³⁷ Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. –Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2008.

³⁸ Ўзбекистонинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакчиги даврида. Т., Шарқ, 2000. Б.9

³⁹ Ўша жойда Б.10.

Lekin, garchand axborot tarzida bo'lsa-da, bu adabiyotlarning qimmatini shundaki, mualliflar hech bir istihola qilmay, o'zlari tarafdor bo'lgan mustamlakachilikning haqiqiy basharasini, oshkor va pinhon niyatlarini takabburlik ila namoyish etadilar. Bu esa, rus mustamlakachiligining qabohati ingliz, ispan, fransuz va nemis mustamlakachiligiga qiyos etilganda, ulardan necha bor tahlikali tusda amalga oshiriganligidan dalolat beradi.⁴⁰

Birgina ruslarning temir yo'l, sanoat va harbiy sohadagi barcha malakali ishchilarni o'z tasarufiga olish mohiyatiga e'tabor beraylik. Bundan ko'zlangan pinhona va razilona maqsad Turkiston tub aholisining taraqqiyotiga g'ov qo'yish, ko'zga ko'rinmas to'rlar bilan uning oyoq-qo'lini chirmab tashlash, oxir-oqibatda, o'lkani Rossiyasiz mustaqil kun ko'rishdan mahrum etish edi. bu maqsad yo'lida ular o'z madaniyatini, tili va adabiyotini, musiqa va hatto, me'morchiligini Turkiston aholisi didiga yaqinlashtirishga, shu orqali, ularning ich-ichiga kirib borishga intiladi. Tub joy kishilari bilan o'zlarini teng qilib ko'rsatish, shu taxlit ular hurmatini qozonish, birga o'tirib-turish, qon-qarindosh bo'lib ketganligini pesh etish odatdagi holga aylanadi. Rus mustamlakachiligining bu xildagi qabih va ayyorona dasturi fikr yuritilayotgan birinchi davr adabiyotida yaqqol gavdalanadi, deyish mumkin. Mustamlakachilar bor kuch-g'ayratlarini Turkistonning o'tmishini kamsitishga, bizni asl tarixizdan judo qilishga sarflaganlari bu davr adabiyotiga xosdir.

Xullas, yurtimizda chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida kechgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot masalalarini yoritishda ushbu davrlarga ya'ni mustamlakachilik davri tarixiga oid birlamchi manbalar jumladan Rossiya elchilari hamda sayyohlarining esdaliklarini tanqidiy ravishda o'rganish va tegishli ilmiy xulosa chiqarish muxim ahamiyatga ega. Tarixiy manbalarni o'rganmasdan turib, bo'lib o'tgan tarixiy voqealar to'g'risida to'g'ri ilmiy xulosa chiqarish mumkin emas. Faqat asl manbalargina o'sha davr voqealari tarixidan chuqur anglash imkonini beradi.

⁴⁰ Б. А. Ахмедов. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи. 2001.

Xulosa

Xullas, yurtimizda chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida kechgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot masalalarini yoritishda ushbu

davrlarga ya'ni mustamlakachilik davri tarixiga oid birlamchi manbalar jumladan Rossiya elchilari hamda sayyohlarining esdaliklarini tanqidiy ravishda o'rganish va tegishli ilmiy xulosa chiqarish muxim ahamiyatga ega. Tarixiy manbalarni o'rganmasdan turib, bo'lib o'tgan tarixiy voqealar to'g'risida to'g'ri ilmiy xulosa chiqarish mumkin emas. Faqat asl manbalargina o'sha davr voqealari tarixidan chuqur anglash imkonini beradi.

Shu bois ham chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri tarixiga oid mavjud manbalarni to'plash va ularni o'quvchilarga yetkazish birlamchi vazifalar sirasiga kiradi. Chunki, ushbu manbalarda Rossiya bosqini arafasida va mustamlaka yillarida O'rta Osiyo xalqlari hayotining barcha qirralari imkon darajasida qamrab olingan.

Mustamlakachilik davriga tarixiga oid manbalar birinchi navbatda birlamchi manbalar o'sha davrga oid qonunchiqarish hujjatlari, statistik ma'lumotlar, esdalik va xotiranomalar, arxiv hujjatlari, davriy matbuot nashrlari, o'sha davr va keyingi davr muarrixlari asarlarida hamda turli xildagi "Sbornik" larda O'rta Osiyoning tarixi, iqtisodi, etnografiyasi, tabiiy iqlim sharoiti, qazilma boyliklari haqida juda ham boy ma'lumotlar keltirilgan. SHuningdek, ushbu manbalarda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini, siyosiy va madaniy hayotini aks ettiruvchi ko'plab ma'lumotlar ham keng o'rin olgan. Mustamlakachilik davri tarixiga oid arxiv hujjatlari va boshqa manbalar materiallarning qimmatligi shundaki, ulardagi keltirilgan ma'lumotlar birlamchi manba ekanligi bilan ham qadrlidir. Shuningdek, o'sha davr mualliflari yozgan asar va esdaliklar ham mualliflarning voqealarni bevosita guvohlari yoki ishtirokchilari sifatida yozgani bilan ham ishonarlidir. SHuning uchun ham ko'plab tadqiqotchilar Turkiston o'lkasining mustamlaka yillari tarixining u yoki bu qirralarini o'rganishda o'sha davrga oid manbalardagi ma'lumotlariga murojaat qilganlar.

Shuningdek, ushbu davrda yurtimizga tashrif buyurgan Rossiyalik elchi va sayyohlarning esdalik hamda asarlari ushbu davr tarixiga oid muhim manbalar sirasiga kiradi. Chunki, sayyoh va elchilar o'zlari ko'rgan, so'rab surishtirgan

xodisa va voqealarni tafsilotlari bilan boricha bayon qiladilar. Rossiyalik tarixchilar ham o'z asarlarini shu bois ko'proq xonliklarga tashrif buyurgan sayyohlar va elchilarning axborotlari, esdaliklariga tayangan xolda yozganlar.

Xulosa qilib shuni aytib o'tish kerakki, chor Rossiyasi mustamlakachilik davri tarixiga doir birlamchi manbalar o'sha davrga oid qonunchiqarish hujjatlari, statistik ma'lumotlar, esdalik va xotiranomalar, arxiv hujjatlari, davriy matbuot nashrlari, o'sha davr va keyingi davr muarrixlari asarlarida hamda turli xildagi "Sbornik" larda ushbu davr tarixi boricha aks etgan ulardan tanqidiy ruhda foydalanish ushbu davr tarixini yoritib berishda katta o'rin tutadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati.

1. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1998.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.

3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. -Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. Б. А. Аҳмедов. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи. 1991.
5. Б. А. Аҳмедов. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи. 2001.
6. Х. Зиёев. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида. (XIX аср иккинчи ярми –XX аср бошлари) –Т.: Шарқ, 2006.
7. Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. –Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2008.
8. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. –Т. Шарқ, 2000.
9. Ўзбекистон тарихи / Р. Муртазаева умумий тарихи остида.-Т.: Янги аср авлоди, 2003.
10. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-12 жилд. –Т.: ЎМЭ, 2004, 2005
11. Шамсутдинов Р. ва бошқ. Ватан тарихи. К.2 /Маъсул муҳаррирлар: Ў Мавлонов, Қ. Усмонов.- Т.: Шарқ, 2010.
12. Шамсутдинов Р., Мўминов Х. Ўзбекистон тарихи.-Т.: Шарқ, 2013.
- 13.Тиллабоев С. Б. Туркистон Ўлкасининг маъмурий бошқарув тизимида маҳаллий аҳоли вакилларининг иштироки. – Т.: Фан. 2008
14. Юнусова Х. Тошкентда 1892-йилги халқ қузгалони Т.: 1998.
- 15.Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошларида Тошкентнинг “янги шаҳар” қисми тарихи. – Т: Фан ва технология, 2004.
- 16.Усмонов Қ., Содиков М., Обломуродов Н. Ўзбекистон тарихи 1-қисм. – Т. 2002
- 17.Мусаев Н. Туркистонда саноат ишлаб чиқаришнинг вужудга келиши ва ривожланиши тарихидан (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX ар бошлари). –Т., 2011.
- 18.Иргашев Ф.Р., Абдурахимова Н. А. Мустамлакачилик сиёсати ва Туркистонинг ижтимоий-иқтисодий аҳволи.- Т. Академия, 2005.

19. Абдурахимова Н.А. Ўзбекистон Россия империяси таркибида.
Ўзбекистон давлатсизлиги тарихи очерклари.- Т. Шарқ, 2001.
20. Аҳмедов С. Тарихий ҳақиқат.// Исмоил Гаспринский ва Туркистон. – Т. Шарқ, 2005.
21. Алимова Д. Жадидчилик ҳаракати ва унинг ижтимоий-сиёсий моҳияти.
Жадидларнинг давлатчилиikka оид қарашлари// Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари.-Т. Шарқ, 2001
22. Зиёев А. Ўзбек давлатчилиги тарихи.-Т. Шарқ, 2000
23. Сагдуллаев А., Мавлонов Ў Ўзбекистонда давлат ва бошқарув тарихи.
– Т: 2006
24. Абдуллаев Ў. И. Ўрта Осиёда қадимги бошқарув ва илк давлатчилик тарихшунослиги. –Т. Академия, 2009
25. Саидахмедов И. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т. Фан, 2006; Эшов Б. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Т. Шарқ, 2007
26. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи.-Т Янги аср авлоди, 2012.
27. Хошимов С. А. , Расулов Б. М. , Хакимов А. А. Манбашунослик. –Т.; 2014.